

Kuch – bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 29-dekabr, chorshanba № 52 (9377)

Xalq ziyolilari gazetasi



O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



– O'quvchilarimizning OTMga kirishi sezilarli darajada ko'paydi, bu yutug'imiz, albatta. Biroq o'quvchilarimizni sinfdoshlaridan ayirib qo'ydik, ular 10 yil bir sinfda o'qishdi, 11-sinf repetitorida "terma jamoa"ga aylanishdi...

– Maktabda o'quvchilarni urmaymiz, hatto qattiq gapirmaymiz. Repetitorlarni qattiqqo'l deyishadi, hech qaysi ota-ona ularga "nega farzandimni urding?" deb qarshi chiqmaydi, ta'lim usuliga aralashmaydi, ta'lim maskaniga borib janjal qilmaydi...

– O'tib borayotgan o'quv yilidagi eng achinarli holatlar: falon maktabga yoki piston direktorga ovoz bering, qaysidir yetakchi yoki Yoshlar ittifoqiga ovoz bering. Xullas, ovoz berishlar yili bo'ldi. Hoy baraka topgurlar, hech bo'lmaganda ovoz beruvchilarimizning faoliyati bilan qisqacha bo'lsa ham tanishtiring, ovozlari halol bo'lsin.

Bu fikrlar kimgadir mayda bo'lib ko'rinar, lekin har birining davomi bor, qolgani ustozlarning o'zlari yana ham chuqurroq mulohaza qilib, tahlil qilsalar. Hammaningizga yangi yilda yangi omadlar, yangi yutuqlar, yaxshi kayfiyatlar tilayman!

Shahnoza BERDIQULOVA,
Oqqo'rg'on tumanidagi
38-maktab o'qituvchisi

"MENING PREZIDENTIM" IJODIY ISHLAR TANLOVI RESPUBLIKA BOSQICHI ISHTIROKCHILARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEVGGA MINNATDORLIK MAKTUBI

Muhtaram Shavkat Miromonovich!

Biz – tanlovning barcha ishtirokchilari fikrlashib, Sizga ushbu dil so'zlarimizni bayon etishni lozim topdik.

Avvalo, bunday imkoniyat tug'ilganidan juda xursandmiz. Negaki, siz bilan g'oyibdan bo'lsa-da suhbatlashish, sizga dilimizdagi so'zlarimizni aytish har birimizning orzumiz edi.

Eng avvalo, sizga Ota – Shavkat ota, deya murojaat qilishga ruxsat bersangiz. Nega desangiz, sizning bizga berayotganingiz mehr rasmiy gap-so'zlar, munosabatlardan ming chandon baland, xuddi otaning o'z jigarbandiga ko'rsatayotgan mehrdek qaynoq, samimiy va beminnatdir.

Aziz va mehribon Shavkat ota!

Mamlakatimiz maktablarining 10- va 11-sinflarida ta'lim olayotgan 600 ming nafar o'quvchilar orasidan

g'olib chiqib, tanlovning respublika bosqichiga yetib kelgan 45 nafar biz tengdoshlar yurtimizning turli go'shalarida tavallud topganmiz. Kim so'lim vohada, kim baland tog'lar etagidagi bahavo qishloqda, yana kimdir bepoyon kengliklarni makon tutgan ovullarda...

Biroq, tug'ilgan joyimiz, millatimiz, tilimizdan qat'i nazar, barchamizni bir tuyg'u – Vatanga va Siz, aziz Prezidentimizga bo'lgan farzandlarcha mehr, samimiy muhabbat jipslashtirdi. Biz garchi bir-birimizni bugungacha tanimagan, bilmagan bo'lsak-da, bu borada ko'ngillarimiz yakdil ekanligi o'z tasdig'ini topdi.

Tanlov bahona deyarli bir hafta poytaxtimizda bo'lish yurtimiz va bugungi olib borilayotgan yangilanishlar borasidagi tasavvurlarimizni yanada o'zgartirdi. Ochig'i, ko'pchiligimiz endigina ona kentimiz,

qishlog'imiz ostonasini hatlab tashqariga chiqishimiz edi. Azim poytaxtimizni ko'pimiz televizorda, kinolardagi tasvirlarda ko'rgan va muayyan tasavvur og'ushida edik. Biroq kelib ko'rib, ochig'i, boshqa sayyoraga tushib qolganday bo'ldik. Go'zal, nihoyatda jozibali... Taassurotlarimiz ichimizga sig'maydi. "Toshkent Siti", "G'alaba bog'i", muzeylar va teatrlar bizning yurtimiz haqidagi tushunchalarimizni boyitdi.

Muhtaram Shavkat ota!

To'g'ri, biz yoshmiz, hali o'quvchimiz. Ammo atrofda bo'layotgan yangilanishlar, o'zgarishlarni his qilishga, chuqur anglashga qodirmiz. Uyda ota-onalarimiz, maktabda ustozlarimiz bizga ko'p bor, sizlarning dunyoqarashlaringiz, fikrlashlaringiz bizning yoshlik davrlarimizdagiga qaraganda juda yuqori, ko'z tegmasin, deb alqashadi.

(Davomi 2-betda.)

2021-yil
muvaffaqiyatlar
yili bo'ldi!

5-bet

Olimlarimiz
sinergetika
metodlarini qo'llashni
xohlamayotir

7-bet

2021-yil
kashfiyotlari

10-bet

"MENING PREZIDENTIM" IJODIY ISHLAR TANLOVI RESPUBLIKA BOSQICHI ISHTIROKCHILARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEVGA MINNATDORLIK MAKTUBI

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Aytganimizdek, ko'pchilimiz o'lsin va chekka qishloqlarda oddiy oilalarda tug'ilganmiz. Shaharlardagi hashamat, shohona hayot ko'pchilimizning tushimiga ham kirmagan. Ammo ichimizda bir o'kinch bor ediki, bu o'zimiz talpinib oladigan bilim maskani – maktabimizdan bizni ayirmasa, degan. Chunki bizning tilimiz ham, oyog'imiz ham paxta egatlarida chiqqan. Avval ota-onamiz, opa-akamizga qo'shilib dalaga chiqqan bo'lsak, sal ulg'aygach, paxtaning mavsumiy mehnatiga jalb qilinardik. Hammaning oldida bitta maqsad: qanday qilib rejani bajaramiz? Shunday kezlarda

"nega shu paxta ekilmaydigan joyda yo shaharda tug'ilmadim, o'qish davrim dalada o'tsa, qanday qilib orzularimga yetaman?" degan o'kinch ko'pchilimizning ko'nglimizdan o'tgani, qiynagani bor gap.

Siz bizni maktabga, ilm olishga qaytardingiz, "farzandlarim, aziz bolalarim bilim olsin, dunyoda hech kimdan kam bo'lmasin" dedingiz. Bizning jajji siymomizda Uchinchi Renessansni yaratadigan avlod timsolini ko'rdingiz va buning uchun barcha sharoitlarni yaratib berdingiz...

Shunday ekan sizni nega yaxshi ko'rmasligimiz, ardoqlamasligimiz, jondan aziz otajonim, bobojonim demasligimiz kerak?!

Endilikda biz nafaqat fikrlash tarzimizda, balki turish-turmush darajasida ham shaharliklardan qolishmaydigan sharoitlarga ega bo'ldik. Maktabimizni-ku qo'ya turaylik, qishloqlarimiz, ovullarimiz ko'chalari, shi-nam guzarlar, kutubxonalar, madaniyat maskanlari hech bir shaharmikidan kam emas.

Aziz Shavkat ota!

Biz 45 nafar ushbu tanlov ishtirokchilari mamlakatimizdagi barcha tengdoshlarimiz nomidan ko'rsatilyotgan yuksak e'tibor, yaratib berilyotgan sharoitlar va bizga bo'lgan cheksiz mehningiz uchun Sizga tashakkur bildiramiz.

Kelajakda Siz boshchiligingizda

bunyod etilyotgan Yangi O'zbekistonimizning gullab-yashnashi, dunyo davlatlari safida oldingi qatorlardan o'rin olishini ta'minlash uchun bor kuch-g'ayratimizni sarflashga, buning uchun sidqidildan o'qish-o'rganishga, ilm olishga qattiq kirishamiz va tengdoshlarimizni ham shu g'oya yo'lida birlashtirishga so'z beramiz!

Siz orzu qilgan ishlarni uddalash, qalbingiz to'ridagi muborak va yorug' niyatlarning ro'yobini Siz va aziz xalqimizga ko'rsatish bizning qo'limizdan keladi.

Biz – Yangi O'zbekistonning yorqin kelajagimiz! Qalbimizda qaynab turgan shiddat va shavq, ko'zimizdagi porloq nur bizni, albatta, shu manzilga yetkazadi!

"MENING PREZIDENTIM" IJODIY ISHLAR TANLOVI RESPUBLIKA BOSQICHI ISHTIROKCHILARINING MAMLAKATIMIZ O'QUVCHI-YOSHLARIGA MUHOJIRATI



Aziz tengdoshlar, ukalar va singillar!

Avvalambor anglab olmog'imiz lozim bo'lgan bir hikmat shundan iboratki, biz chin ma'noda shu Vatanim baxtiyor va shodon o'g'il-qizlarimiz!

Bugun hammamizda kompyuter, telefon bor. Barchamiz internet imkoniyatlaridan foydalanamiz. Va ushbu tarmoqni kuzatib ko'rayotimizki, dunyoning barcha-barcha joylarida ham tinchlik-xotirjamlik ne'matlari ustuvor emas. Arab o'lkalaridagi urushlar, Afrika davlatlaridagi parokandaliklar va mamlakatlarni qurshagan ochlik va yo'qchilik u yerda voyaga yetayotgan tengdoshlarimizning nafaqat ta'lim olishi, balki halovatini, xotirjamligini ham yulib olgan.

Ko'p uzoqqa bormay yon qo'shnimiz – afg'on diyorida "ertalab uyg'onganimga ota-onamni, aka-singlimni omon ko'ramikanman?", deya xavotirda yostiqa bosh qo'yadigan tengdosh do'stlarimizning og'ir qismati biz uchun juda afsuslanarli, albatta.

Mana shunday og'ir bir sharoitlarni ko'rib, bilib o'z Vatanimiz, tug'ilib o'sgan shahrimiz, qishlog'imiz va ovulimiz, albatta, ko'zimizga jannatday ko'rinishi ham ayon haqiqat.

Yurtimizdagi tinch-totuvlik, yaratuvchilik ortidan kelayotgan baxtiyorlikni hech narsaga qiyoslab bo'lmaydi.

Hayotda yuz berayotgan o'zgarishlarni, garchi yosh bo'lsak-da, barchamiz ko'rib, his qilib turibmiz. Avvalo, maktab va ta'limga berilgan e'tibor har birimizning hayotimizda yorqin aks etayotir.

Qadrli tengdoshlar!

Bugun davlatimiz, xalqimiz katta yo'lning boshida turibdi. Bu shonli yo'l – Yangi O'zbekistonni bunyod etish hamda Uchinchi Renessansni yaratish yo'lidir.

Biz shunday baxtiyor, Oллоh yarlagagan avlodimizki, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev bu muborak yumushni uddalashda bizga suyanmoqda, bizning aql-zakovatimizga umid bog'lamoqda.

Insoniyat tamaddunlarining beshigini tebratgan, dunyo kengliklarini o'z aql mash'alalari bilan yoritgan ulug' bobolarimizning qoni tomirlarimizda gupirib turganiga hech ham shubhalanmaymiz.

Biz yana bir paytlardagidek, dunyoni ortimizdan ergashtirishga, bobolarimizdek jahon ahlini og'zimizga qaratishga qodirmiz. Buning uchun bizga bugun barcha sharoitlar muhayyo qilingan.

Aziz tengdoshlar, Uchinchi Renessans bunyodkorlari!

Ko'rib turganingizdek, bugun dunyo o'zgarishga yuz tutmoqda, qurol-u kuch-qudratdan ko'ra, aql-idrok hukmronlik qiladigan kelajak ostonasida ekanimiz tob-

ora kundek ravshan bo'lib bormoqda.

Shunday ekan, biz barcha tengdoshlarimiz – o'quvchi-yoshlarni bir g'oya – Prezidentimiz boshlagan Vatanimiz va Millatimiz oldidagi muqaddas maqsad – Yangi O'zbekistonni qurish va Uchinchi Renessans orzusini ro'yobga chiqarishni Yurtboshimiz, yurtimiz va xalqimiz oldidagi farzandlik burchimiz, deb dilimizga tugaylik hamda bor kuch-g'ayratimiz, intilishlarimizni shu nuqtaga jamlaylik.

Unutmaylikki, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Bobur kabi dunyo ilm-fani, madaniyati va san'atiga bemisli hissa qo'shgan ulug' bobolarimiz ham bir paytlar bizdek orzulari osmon qadar keng bolalar bo'lishgan. Ularni kamolotning bunday yuksak cho'qqisiga yetkazgan narsa esa, albatta, ilmga va vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat edi, desak adashmaymiz.

Aziz tengdoshlar, yengni shimaring, marrani yuksakroq oling, zero, bugun shu ulug' vatanimiz va xalqimizning yorug' kelajagi bizning qo'limizda.

Shak-shubha yo'qki, biz Prezidentimiz orzu qilgan marralarni, albatta, egallaymiz, bu yo'lda Yurtboshimizga qo'l-qanoat bo'lamiz, ushbu muqaddas maqsad yo'lida bor kuch-g'ayratimizni ishga solamiz!

Bizning bugungi shiorimiz shu bo'lmog'i kerak!

"Takliflarimiz Prezidentga yetib borsin!"

Yurtimiz yoshlari o'z kelajagini qaysi ranglarda ko'radi? Ularning davlat siyosati, iqtisodi, olib borayotgan islohotlariga munosabati qanday? Ijtimoiy-siyosiy hayotga ijobiy ko'z bilan qaraydimi yoki tanqidiy? Yoshlarning ham o'z takliflari bormi?



Mana shu savollarga kuni kecha O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi va Respublika kasaba uyushmalari Federatsiyasi hamkorligida tashkil etilgan "Mening Prezidentim" ijodiy ishlar tanlovi"da ko'plab javoblar olindi.

Aslida tanlovning maqsadi ham shu. Yurtimiz yoshlarining Prezident siyosatiga nisbatan ziyrakligini, Vatan ravnaqi yo'lidagi mas'uliyati, e'tibori va ishtirokini oshirish juda ham muhim.

Tanlovning 1-bosqichi 20-noyabr – 4-dekabr kunlari joylarda bo'lib o'tgan edi. Unda respublikamizdagi 9 872 ta maktabdan jami 591 ming 927 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Tuman (shahar) bosqichi 6–14-dekabr kunlari bo'lib o'tdi va unda 9 894 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Tanlovning hududiy bosqichi 15–20-dekabr kunlari yuqori saviyada tashkil etildi va unda 207 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

O'quvchilar tanlov jarayonida "Yangi O'zbekiston mening nigohimda", "Yangi O'zbekiston – yangi imkoniyat-

siyasi raisi Qudratilla Rafiqov, O'zbekiston Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari Dilshod Kenjayev ishtirok etdi.

— Tanlovning respublika bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritgan 45 nafar o'quvchi va 14 nafar kuzatuvchilar tantanali ravishda kutib olindi va "Chinobod Plaza" sanatoriysiga joylashtirildi, — deya ma'lumot berdi O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi bosh mutaxassisi Lazokat Turikova. — Sanatoriya ishtirokchilar uchun barcha sharoitlar muhayyo qilindi. Tanlov doirasida o'quvchilarning O'zbekiston Parlamenti a'zolari va ziyolilar bilan uchrashuvlari, shuningdek, zamonaviy bunyodkorlik maskanlari hamda poytaxtimizning diqqatga sazovor joylariga sayohat tashkil qilindi.

Tanlovning Respublika bosqichi ishtirokchilari O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi binosida "Mening Prezidentim" mavzusida insho yozishdi. Ishtirokchilar orasida o'zbek tilidan tashqari rus, qoraqalpoq va qozoq tillarida ham insholar yozgan boshqa millatga mansub o'quvchilarni uchratdik.

Baholash natijalariga ko'ra, tanlov respublika bosqichining 1-, 2-, 3-o'rin hamda 12 nafar nominatsiya sohiblari aniqlandi.

Taqdirlash marosimida respublika bosqichining barcha (45 nafar) ishtirokchilariga noutbuk, 12 nafar nominatsiya sohiblariga esa mobil telefonlar topshirildi.

Tanlovning 1-, 2-, 3-o'rin o'rin g'oliblariga 2022-2023- yoki 2023-2024- o'quv yilida respublikadagi oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari nati-



yllik, 2-o'rin sohibiga 3 yillik, 3-o'rin sohibiga 2 yillik o'rtaacha to'lov-shartnoma mablag'lari miqdorida mukofotlar beriladi.

E'tiborlisi, tanlov g'oliblarining o'qituvchilari ham munosib rag'batlantirildi. Xususan, 1-o'rin sohibining o'qituvchisiga 30 million, 2-o'rin g'olibining o'qituvchisiga 20 million va 3-o'rinni olgan bolalarning o'qituvchilariga 10 million so'mdan pul mukofotlari hamda maktab direktorlariga noutbuklar taqdim etildi.



Ra'no ABDUHAMIDOVA, Parkent tumanidagi 5-IDUMning 10-sinf o'quvchisi, "Mening Prezidentim" respublika tanlovining 1-o'rin sohibi:

— Oldin ham tanlovlarda ko'p qanashganman, g'olib bo'lganman, lekin bunday katta e'tibor va rag'bat bildirilmagan edi. Biz ishtirokchi o'quvchilar har bir bosqichda turfa sohada o'zimizning fikrlash qobiliyatimiz, Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlardan xabardorlik darajamizni namoyish qildik. Respublika bosqichi qatnashchilarining hammasi kuchli edi. Bu bosqichda o'zimiz yashaydigan hududda so'nggi 5 yil ichida olib borilgan o'zgarishlarni yozishimiz kerak edi. Men Parkent tumanida o'zim e'tibor bergan o'zgarishlarni qog'ozga tushirdim. Parkentga kirib kelgan har bir inson uning ravon yo'llari, tabiatiga qoyil qoladi. Tumanimiz 1926-yili tashkul topgan. Besh yil ichida u yerda katta o'zgarishlar yuz berdi, deb hisoblayman. Avvallari tuman

aholisi malakali tibbiy xizmat ichun faqat Toshkentga borishiga to'g'ri kelardi. Hozir esa tumanimizda zamonaviy, barcha sharoitlarga ega ulkan poliklinika, Tibbiy diagnostika markazi ochilib, aholiga beminnat xizmat ko'rsatmoqda. Ularga kuchli malakali shifokorlar jalb qilindi. Kumushkonda O'zbekistonda birinchi marta turizm qishlog'i tashkil etildi. U yerda mehmonxonalar ochildi. Natijada bir yil ichida tumanimizga 412 mingga yaqin sayyoh tashrif buyurdi. Bu ko'rsatkichlar yildan-yilga ortib bormoqda. Men o'z ijodiy ishida mana shu kabi mulohazalar va qarashlarimni aks ettirib, o'zimning ham bir qator takliflarimni bildirdim. Bizga aytishlaricha, yozgan ishlarimizni Prezidentimizning shaxsan o'zlari o'qib ko'rar ekanlar. Shunday bo'lsa men juda xursand bo'lardim. Chunki biz ularda ko'pdan-ko'p takliflarimizni ham bildirgan edik.

Mohira DADABOYEVA, Parkent tumanidagi 5-IDUMning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, "Mening Prezidentim" respublika tanlovi 1-o'rin sohibining o'qituvchisi:

— Tanlov juda yaxshi tashkil qilindi. Ishtirokchilar va ularning ustozlariga qaratilgan e'tibor, yaratilgan shart-sharoitlar barchamizni mamnun etdi. Tanlov g'oliblarining o'qituvchilari ham munosib taqdirlandi. Oxirgi yillarda o'qituvchilarga nisbatan hurmat va rag'bat ortib bormoqda. Buni mana shu tanlov misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ta'limga sarflayotgan mehnatlarimiz o'quvchilarimiz muvaffaqiyatlari orqali yuzaga chiqmoqda va biz ularning yutuqlari evaziga rag'batlantirildik. O'quvchilarning respublikada birinchilikni qo'lga kiritgani va OTMda o'qish uchun 4 yillik shartnoma puli bilan taqdirlanganining o'zidan boshim ko'kka yetgan edi. Ammo bu hammasi emas ekan. 30 million so'm mukofot puli mening ham mehnatlarim evaziga tantana bilan topshirildi. Bunday e'tibor va rag'batdan so'ng biz muallimlar kasbimizga yanada mehr qo'yib, bilimlari va qobiliyatli yoshlarni yetishtirib chiqarishga astoydil harakat qilamiz.

Zilola MADATOVA,
"Ma'rifat" muxbiri



lar", "Mening Prezidentim" mavzularida ijodiy salohiyatlarini namoyon etdilar.

Kuni kecha tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari va Senat a'zolari, Xalq ta'limi vaziri Baxtiyor Saidov, Respublika kasaba uyushmalari Federat-

jalariga ko'ra, to'lov-shartnoma asosida talabalikka qabul qilingan taqdirda, 1-o'rin sohibiga 4 yillik, 2-o'rin sohibiga 3 yillik, 3-o'rin sohibiga 2 yillik to'lov-shartnoma mablag'larini to'lab berilishi kafolatlangan sertifikatlar topshirildi. Grant asosida talabalikka qabul qilingan taqdirda 1-o'rin sohibiga 4

Samarqand "Ta'lim xabi"ga aylanadi

Ko'p yillardan buyon oddiy qalamkash sifatida mam-lakatimiz ta'lim tizimi haqida qayg'uraman. Bir necha maro-taba qishloq muallimlarining quvonch va tashvishlariga sherik bo'lib, matbuotimiz "yopiq" paytlarda ham ularga ma'naviy ko'mak berganman. Hatto Samarqandning olis tog' qishloqlaridagi ta'lim muam-mosini ko'tarib, yomon ham ko'ringanman. O'lis va bepoyon Qizilqum bag'ridagi Tomdi cho'llarini kezib, ovul muallim-lariga she'r aytib bergan payt-larim ham bo'lgan...

Bugun hayot o'zgardi. Biz ham-mamiz, murabbiy, ota-ona, farzandla-rimiz o'quvchilr ham tezkor zamonda tez o'zgarimoqda. Ana shunday paytda ko'pchilik qayg'urayotgan ta'lim sama-radorligiga qanday erishamiz? Shu o'ylar meni qadim Samarqand tomon yetakladi.

Bugungi kunda viloyat xalq ta'limi tizimida jami 1286 ta ta'lim muassasasi, jumladan, 1267 ta maktab (shundan, 60 ta IDUM va IDUMI, 8 ta maxsus mak-tab-internatlar), 17 ta "Barkamol avlod" bolalar maktablari, 1 ta Mehribonlik uyi, 1 ta malaka oshirish hududiy marka-zi faoliyat yuritadi. Bundan tashqari "Bolalar kutubxonasi" mavjud.

Bu yil respublika reytingida Samar-qand viloyati 13-pog'onadan 9-pog'ona-ga ko'tarilibdi. Ammo Samarqandday ro'yi zamin jamoatchiligi uchun bu ye-tarli emas. Samarqandlik muallimlar bilan suhbatlashib sezdimki, muammo-lar ham yetarli. Mutaxassis fan o'qituv-chilari yetishmaydi, boshqa viloyatlar-dan kelib dars berayotgan o'qituvchilar olis hududlarda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni boshlab yuborishgan. Uni vaqt ko'rsatadi. Keyingi paytda umumta'lim maktablari reytingi-ning e'lon qilinishi jamoatchilikni ham qiziqitirib qo'ydi. Bu shaffoflik chindan-da ta'limga mas'ul xalq ta'limi xodimla-rining ish faoliyatini misoli barometrday ko'rsatib beradi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Samarqand viloyati hudu-diy bo'limining jamoatchilikka bildi-rishicha, 16 tuman va shahardan 244 ta maktabdan 5412 nafar o'quvchi ona tili fanidan, 5349 nafar o'quvchi matematika fanidan nazorat ishlari, 9760 nafar o'qituvchi va 5489 o'quvchi ijtimoiy so'rovnomada ishtirok etgan. Respublika bo'yicha 207 ta tuman va shaharlar orasida Paxtach tumani 53, Jomboy tu-mani 57, Toyloq tumani 58-o'rinda qayd etilgan va viloyatda yetakchi o'rinda. Qo'shrabot tumani 173, Urgut tumani 183, Kattaqo'rg'on tumani 189-o'rinda qayd etilgan.



Rahbarlar maktabga yaqinlashmoqdam?

Yakunlanayotgan yilda "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon ya-shaylik" shiori ostida "Bilimlar kuni" tadbirlari o'tkazildi. Barcha viloyat hokimlari, tuman hokimlari umum-ta'lim maktablarida bo'lishib, dars o'tishdi. Viloyat hokimi E.Turdimov Samarqand shahridagi 8-umumta'lim maktabida bo'lib, nutq so'zladi. Qol-gan viloyat hokimi o'rinbosarlari ham maktablarda bo'lishdi. Urgut va Past-darg'om tumanlari maktablariga oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituv-chilari biriktirib qo'yildi. Kelgusida ta'lim samarasi past 200 ta maktabda shu tajriba qo'llaniladi. Qolaversa, joylardagi 4 ta sektor rahbarlarining o'z hududiga mas'ulligi, maktabga bosim qilish emas, aksincha murabbi-ylarga ko'magi talab etiladi. Yaqinda Xalq deputatlari Samarqand viloyati kengashining 50-sessiyasida viloyat hokimi Erkinjon Turdimov rahbarlar-ning ta'limga ma'sulligini ta'kidlab, ular maktabning sharoitiga, muallim esa ta'limning mazmuniga javob ber-ishini ta'kidladi.

Bundan bir yildan ortiq vaqt oldin viloyat Xalq ta'limi boshqarmasiga rah-bar etib tayinlanganimdan so'ng, ishni viloyatning eng olis hududlaridagi mak-tablar holatidan xabar olishdan bosh-ladim, — deydi viloyat XTB boshlig'i Zebiniso Shodiyeva. — Qo'shrabotning eng olis hududlari Forish tumani bilan chegaradosh. Hatto ijtimoiy tarmoqlar-da tanqid qilingan Qo'shrabotda 15km. ga yavov qatnaydigan Oqtosh qishlog'i o'quvchilari bilan darsga ham bordin. Endi rejaga ko'ra, ularga maktab qu-rib beriladigan bo'ldi. Viloyatimizga Toshkent, Buxoro, Farg'ona va boshqa viloyatlardan, asosan, Navoiy viloyat-idan o'qituvchilar jalb etilgan. Bu yil respublikada birinchi o'rinni egallagan Navoiy viloyatidan Kattaqo'rg'on, Nurobod, Qo'shrabot tumanlaridagi olis hududlarda joylashgan maktablarga di-rektorlik lavozimiga tajribali pedagog xodimlarni chaqirib, direktor lavozimi-ga tayinladik. Albatta, yakunlanayotgan yilda bir qator yutuqlarga ham erishdik. Kattaqo'rg'on shahridagi 11-ixtisoslash-gan davlat umumta'lim maktabi o'qituv-chisi Sayyora Imomova "O'zbekiston

Xalq o'qituvchisi" unvoni bilan, yana 8 nafar murabbiylarimiz "Mehnat shuhrati", "Do'stlik" ordenlari bilan, "Sodiq xizmatlari uchun" va "Shuhrat" medallari bilan taqdirlanishdi. Bu e'tirof, fidoyi murabbiylarimizga yanada kuch-g'ayrat, mashaqqatli yumushlarida il-hom bag'ishladi.

"Darg'om" olimpiadasi ta'lim drayveriga aylanyapti

Pastdarg'om — viloyatning hudu-di jihatdan katta tumanlaridan biri. Tuman XTB mudiri Nodira Saparo-va-ni ta'kidlashicha, bu yil tuman-da oliy ta'limga kirish ko'rsatkichi 23 foiz bo'lgan. O'tgan yili bu ko'rsatkich 7,5 % gina, edi, xolos. Pastdarg'omliklar viloyat bellashuvlarida bilan 7-o'rinni egallashgan. Tuman hokimi tashabbusi bilan "Darg'om olimpiadasi"ni o'tkazish an'anaga aylangan.

Tumanimizda jamoamiz ish taj-ribasi ko'pchilikning e'tiborini tort-gan, — deydi, 28-IDUMI direktori Zi-yoda Eshmurodova. — Ayni paytda bizda 500 nafar o'quvchi tahsil oladi. 2019-2020-o'quv yilida 53 bitiruvchi-dan 44 nafari, 2020-2021-o'quv yilida 63 bitiruvchidan 44 nafari oliy o'quv yurti talabasi bo'ldi. Informatika va bi-ologiyadan viloyatda birinchi o'rinni qo'lga kiritdik. "Darg'om olimpiada"si 6-, 7-, 8-, 9-sinf o'quvchilari o'rtasi-da matematika, ona tili, ingliz tilidan o'tkaziladi. Maqsadimiz maktab o'qu-vchilari bilimini mustahkamlash. 127 ta umumta'lim maktabi ishtirok etgan bel-lashuvda g'oliblar Juma shahridagi 5 ta o'quv markazida bepul o'qish imkonini qo'lga kiritadi. Bu ham iqtidor sohib-lariga, ayniqsa, ko'p bolali, ta'minoti kam, ammo farzandi iqtidorli oilalarga katta imkoniyat. Maktabimiz ochil-ganidan buyon Urgut, Kattaqo'rg'on, Nurobod tumanlaridan 300 nafar bola tahsil oldi. Murabbiylarimiz 45 nafar bo'lib, ularning 15 nafari oliy toifali. Olimpiada asosan uch bosqichda o'tka-ziladi. Umumta'lim maktablarida birin-chi, saralab olinganlar ikkinchi, nihoyat uchunchi turda qolganlar bellashadi. Ay-valo, ushbu bellashuvga homiylik qil-ganlarga bir murabbiy sifatida o'z min-natdorchiligimni bildiraman. Qolaversa, u minglab pastdarg'omlik iqtidor so-

hiblarining ro'yobga chiqishiga turtki bo'ladi.

Tumandagi 72-umumta'lim mak-tabining 2020-2021-o'quv yilida 65% o'quvchilari o'qishga kirishga erishdi. "Jamoamiz izlanishlari yomon emas, ammo biz bu bilan cheklanib qolmay-miz, — deydi maktab direktori Dilafr'o'z Hazratqulova. — Yakunlangan yilda "Darg'om olimpiadasi"da ingliz tili, matematika, ona tili fanidan va "Mening Prezidentim" insholar tanlovida tuman-da birinchi o'rinni egallashdi. Yana bir taklif. Qishloq sharoitida yashay-miz. O'qituvchilar uchun elektr toki va gazdan imtiyoz berilsa, biz uchun yana ham yaxshi bo'lardi. Boisi, hali mao-shimiz uncha ko'p emas. Bu ham bizga katta imkoniyat. Maktabimizga Ag'ron, Jovulqosim, Arabxona qishloqlaridan o'quvchilar qatnaydi. Zamonaviy sport zalimiz yo'q. Bir o'qituvchimiz esa bo-lalar bog'chasi ochish niyatida.

Yangi O'zbekistonda yangi imkoniyatlar

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyati ja-moatchiligi bilan uchrashuv chog'ida kelgusida samarqandliklar uchun ta'lim sohasidagi ulug'vor yangilanishlar, jum-ladan, ta'lim sohasida kelgusida yara-tilajak imkoniyatlar haqida to'xtalib o'tgan edi.

Samarqand kelgusida bilim va il-mfan makoni, ta'lim "xabi"ga aylana-di, degan edi o'shanda Prezidentimiz. Viloyatda maktabgacha ta'lim soni 69 foizdan 82 foizga, oshadi, 59 ta davlat va 34 ta xususiy, 905 ta oilaviy bog'cha tashkil etiladi. Kelgusi besh yilda 38 ta yangi maktab quriladi. 711 tasi rekon-struksiya va kapital ta'mirdan chiqarila-di. 155 ming qo'shimcha o'quvchi o'rmi yaratiladi. ITga ixtisoslashgan makta-blarga 50 ming yoshlar qamrab olina-di. Oliy ta'limga qamrov 33 foizdan 50 foizga oshiriladi.

Ha, ushbu raqamlar shunchaki qayd etib o'tish uchun emas. U samarqandlik farzandlarimiz, o'quvchi, talabalarning cheksiz orzulari amalga oshishi uchun juda katta imkoniyat va katta toledir. Bugungi kunda samarqandlik fidoyi mu-rabbiylar ana shunga munosib bo'lish uchun mehnat qilishmoqda!

O'ljaboy QARSHIYEV

Sarhisob

2021-yil muvaffaqiyatlar yili bo'ldi!

Yangi yil arafasi kishi ko'ngliga ajib his-tuyg'ular, eski yil sarhisobi-yu kutilgan orzu-umidlarni baxsh etadi. Ta'lim tizimida mehnat qilayotgan o'qituvchilarning o'tgan yilgi yutuqlari, yangi yilda amalga oshirishni ko'zlagan niyatlari yosh avlodning bilim olishi va tarbiyasi bilan bog'liq. Yangilanishlar jarayonida ustoz-murabbiylarning ishga, hayotga munosabati va mas'uliyati o'zgarib borayotgani quvonarli. Pedagog obro'si va qadrini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar ularni yanada kuch-g'ayrat bilan ishlashga undaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-sentabrda "O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlardan bir guruhni mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga asosan soha xodimlaridan bir guruhi davlatimizning orden va medallari bilan mukofotlandi. Yangi yil ostonasida mana shu yutuqlarga erishgan ustoz-murabbiylar uchun 2021-yil qanday o'zgarishlarga boy bo'lgani va kelgusi yilda nimalar kutilayotgani bilan qiziqdik.

Rufat AHMIDOV,

Xiva shahridagi Prezident maktabi direktori, II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni sohibi:

— 2021-yil bizning jamoamiz uchun muvaffaqiyatli keldi. O'qituvchi va murabbiylar kuni II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan taqdirlandim. Ta'lim sohasidagi faoliyatim Xonqa tumanidagi 27-maktabda yetakchilikdan boshlangan bo'lsa, hozirgi kungacha turli lavozimlarda o'z bilimimni sinovdan o'tkazib kelyapman. "Kitobxon maktab", "Zamonaviy davr rahbari" ko'rik-tanlovlarida g'oliblik menga yanada shijoat bilan ishlash uchun kuch beradi. O'qituvchi va o'quvchilarning o'z ustida ishlab, xalqaro tanlovlarda ishtirok etishmoqda. Maktabimiz o'quvchilari Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 2020-2021-o'quv yilida tashkil qilingan fan olimpiadalarining shahar bosqichida yuqori o'rinlarni egallashdi.

Keyingi yillarda ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor viloyatlardagi chekka hudud o'quvchilarining yaxshi sharoitlarda bilim olishiga imkon beryapti. Xorazm tarixida birinchi marotaba 2021-yili Xiva shahridagi Prezident maktabi Cambridge Assessment International Education tashkiloti tomonidan tashkil etilib, xalqaro Cambridge maktabi maqomini qo'lga kiritdi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident ta'lim muassasalar agentligi tomonidan o'tkazilgan fan olimpiadalarida 29 nafar o'quvchi yuqori o'rinlarni egalladi. Bundan tashqari, agentlik tasarrufidagi maktablar o'rtasida



o'tkazilgan "Yosh kitobxon — 2020" tanlovida faxrli 1-, 2-, 3- o'rinlarni Xiva shahridagi Prezident maktabi o'quvchilari qo'lga kiritdi. Maktab o'quvchilarining deyarli barchasi "One million uzbek coders" onlayn platformasi yordamida Full-stack development, Front-yend development, Data analysis, Android development kurslarini, "DGCamp" ta'lim markazining Web development, Desktop development kurslarini muvaffaqiyatli yakunladilar. "Qo'qon olimpiadasi"da esa maktabning 11-sinf o'quvchisi respublika bosqichida birinchi o'rinni egallab, "Cobalt" avtomobili sohibiga aylandi. Bitiruvchilarning 12 nafari chet el universitetlaridan va 5 nafari esa Toshkentda joylashgan AKFA (Koreya) universitetidan grant yutib olishdi.

Boburbek BOLTAYEV,

Abu Ali Ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'qituvchisi, "Kelajak bunyodkori" mukofoti sovrindori:

— Bu mukofot bizga o'quvchilarning xalqaro olimpiadalardagi yutuqlari uchun davlatimiz tomonidan berildi. Ayni paytda ham xorijda turib, yurtidoshlarimga dil izhori yo'llayotganimdan mamnunman. O'quvchilik paytlarim kimyo fani bo'yicha bir nechta xalqaro olimpiadalarda bronza medalini olganman. Akam Bekzodbek Boltayev ham kimyo fanidan xalqaro Mendeleyev olimpiadasida ikki marotaba kumush, jahon kimyo olimpiadasida (O'zbekiston tarixida yagona) oltin medalni qo'lga kiritgan. Singlim ham bir nechta bor xalqaro olimpiadalarda g'olibi bo'lgan. Biz o'zimiz tahsil olgan Toshkent davlat pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi akademik litseyda xalqaro olimpiadaga tayyorlaydigan guruh shakllantirib, o'quvchilar bilan ishlay boshladik. O'quvchilarning hozirgacha 50 ta medalni qo'lga kiritishdi. Barcha yutuqlarga jamoa bo'lib ishlash orqali erishdik. Yosh biologlar va kimyogarlar maktabi — Abu Ali Ibn Sino ixtisoslashtirilgan maktabi o'quvchilari shu yil xalqaro olimpiadada 2 ta kumush,

1 ta bronza medali, jahon kimyo olimpiadasida 2 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. Bir hafta oldin o'smirlar o'rtasidagi xalqaro biologiya, kimyo va fizika fanlari bo'yicha xalqaro olimpiada o'tkazilib, o'quvchilar yuqori o'rinlarni egallashdi.

O'tgan yillarda xalq ta'limi tizimida olimpiada departamenti ochilgani katta yangilik bo'ldi. Bu borada Xitoy, Janubiy Koreya va Rossiya tajribasi asosida ish olib borilmoqda. Tizimdagi muammoni vaziyatlarga chek qo'yishga harakat qilinayapti. Masalan, olimpiadaga saralash jarayonlarini shaffof tashkil etishga erishilmoqda. Qolaversa, mintaqaviy va respublika olimpiadalari g'oliblari, o'qituvchilar ham ish haqining 50 barobaridan 500 barobarigacha bo'lgan pul mukofoti bilan taqdirlanishyapti. Bunday e'tirof dunyoning eng rivojlangan davlatlarida ham kam kuzatiladi.

2022-yilda ham o'z oldimizga katta reja va maqsadlar qo'yganimiz. Yil boshida Xitoyda o'tkaziladigan xalqaro olimpiadaga boradigan o'quvchilar safini kengaytirish, tajribali va bilimli o'quvchilar bilan qizg'in tayyorgarlik ko'rish bosqichidamiz. Bunday iqtidorli o'quvchilar safiga yangi iqtidorlar ham qo'shilyapti.

Ilhomjon MAQSUDOV,

Kosonsoy tumanidagi 4-imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi, "Do'stlik" ordeni sohibi:

— Maktabimizda nutqiy rivojlanishi sust bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiya oladi. Ularning nutqi rivojlanishi, hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun imkoniyatlar yetarli, albatta. Istiqlolning ilk yillaridan boshlab men mana shu maktabda jismoniy tarbiya fanidan dars berib kelyapman va o'quvchilarning jismonan baquvvat bo'lishi, salomatligi uchun zarur mashg'ulotlarni o'taman. O'quvchilarni ta'lim-tarbiya berish barobarida mehnatga ham ko'niktiramiz. Maktabdagi tennis to'garagida o'g'il-qizlar birlashib, sport va do'stlik muhiti yaratilyapti.

Yaqinda Xalq ta'limi vaziri Baxtiyor Saidovning o'z murojaatida "O'tgan vaqt

"Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham — bu ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq".

Shavkat MIRZIYOYEV

mobaynida xalq ta'limi tizimiga befarq bo'lmagan fuqarolardan 7 mingdan ortiq takliflar kelib tushdi. Takliflarning qariyb 25 foizi ota-onalar, 70 foizi tizim xodimlari va 5 foizdan ortig'i boshqa fuqarolardan kelib tushgan. Vazirlik jamoasi bilan birgalikda sizlardan kelib tushgan har bir taklif va mulohazalarni o'rgandik va tahlil qildik" degan gaplari meni katta maqsadlar sari undadi.

2021-yilda maktabimizdagi kam ta'minlangan o'quvchilarning mavsumiy ust-boshlariga moddiy ko'mak berilsa yaxshi bo'lardi. Yana bir taklifim — bolalar futbol bilan shug'ullanishi uchun sport maydonchasi qurib berilsa ko'nglimiz ko'tarilardi. Chunki bu yerda ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun jismoniy harakatning ahamiyati katta.

Xosiyat QARAYEVA,

Denov tumanidagi 1-maktabning 81 yoshli direktori, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni sohibi:

— 65 yillik pedagogik faoliyatim davomida farzandlarimizning bilim olishi uchun harakat qildim. O'z mablag'im evaziga qo'shimcha maktab binosi qurib, bir necha yildan buyon a'lochi o'quvchilarga shaxsiy stipendiyamni tashkil qilganman. Ayni paytda OTMlarga qabul qilingan 11 nafar bitiruvchiga har oyda 100 ming so'mdan, 10 nafar iqtidorli o'quvchilarga 100 ming so'm, 4 nafar intiluvchan o'quvchiga 50 ming so'mdan beriladi.

Inson mehnat qilsa, rag'bat ham oladi, albatta. Aslida menga ko'p mukofotlar berilgan, ammo men mukofot uchun ishlamayman. Tumanimiz yoshlari hayotda o'z o'mini topishi, bilimli bo'lib ulg'ayishini istayman. "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15 va 20 yilligi munosabati bilan esdalik nishonlari, Xalq ta'limi vazirligining faxriy yorliqlari, "Do'stlik" ordeni hamda "El-yurt hurmati" ordenlari, "Ta'lim fidoyisi" ordeni, "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni, "Namunali maktab", "Eng obod ta'lim muassasasi" ko'rik-tanlovlari g'olibi, "Xalq ta'limi fidoyisi" ko'krak nishoni, "Tadbirkor rahbar va jamoa" tanlovi g'olibi bo'lishimda jamoaning birdamligi, mehnati bisyor.

O'tgan yillarda xalq ta'limi tizimida katta o'zgarishlar bo'ldi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Jahon banki hamkorligidagi "Maktab ta'limini rivojlantirish" loyihasi doirasida 1-4 va 5-9-sinflar uchun keltirilgan o'quv-metodik materiallar va resurslardan iborat multimedia xonasi tashkil etildi. Ushbu loyihaning ikkinchi bosqichida "Kichik loyiha" tanlovida ishtirok etib, 5000 AQSH dollari miqdorida grant sovrindori bo'ldi va maktab zarur texnika vositalari bilan ta'minlandi.

Shoira BOYMURODOVA
tayyorladi.

O'TISH BALLARINING TA'LIM YO'NALISHLARI BO'YICHA TAHLILI: FIZIKA

Davomi. Boshlanishi oldingi sonda.

Quyida 2021–2022-o'quv yilida oliy ta'lim muassasalarining ta'lim shakli *kunduzgi*, ta'lim tili *o'zbek tili* bo'lgan Fizikaga oid ayrim yo'nalishlarga talabalarni qabul qilish uchun o'tkazilgan test sinovining o'tish ballari ta'lim yo'nalishlari kesimida berilmoqda. Jadvallarni tuzishda Davlat test markazining internetdagi mandat.dtm.uz sahifasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Oliy ta'lim muassasi nomi	Ta'lim shifri	Yo'nalish	Qabul kvotasi		O'tish ballari	
			Davlat granti	To'lov-shartnoma	Davlat granti	To'lov-shartnoma
O'zbekiston Milliy universiteti	5140200	Fizika	50	140	156,45	92,4
Samarqand davlat universiteti	5140200	Fizika	11	40	142,8	100,8
Farg'ona davlat universiteti	5140200	Fizika	20	80	140,7	91,35
Qashgi davlat universiteti	5140200	Fizika	20	75	138,6	84
Buxoro davlat universiteti	5140200	Fizika	20	80	135,45	69,3
Qashgi davlat universiteti	5140200182	Fizika (Chiroqchi tumani)	3	0	135,45	0
Termiz davlat universiteti	5140200	Fizika	15	75	131,25	82,95
Namangan davlat universiteti	5140200	Fizika	25	75	130,62	84
Guliston davlat universiteti	5140200	Fizika	15	35	130,2	85,05
Urganch davlat universiteti	5140200	Fizika	20	60	130,2	79,8
Qoraqalpog' davlat universiteti	5140200	Fizika	15	30	127,05	85,05
Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	5140200	Fizika	20	30	126	88,2
Andijon davlat universiteti	5140200	Fizika	25	50	124,95	88,2
Samarqand davlat universiteti	5140200220	Fizika (Nurobod tumani)	4	0	121,8	0
Qashgi davlat universiteti	5140200186	Fizika (Kitob tumani)	2	0	99,75	0
Termiz davlat universiteti	5140200171	Fizika (Denov tumani)	3	0	90,3	0
Termiz davlat universiteti	5140200176	Fizika (Qumqo'rg'on tumani)	1	0	89,25	0
Termiz davlat universiteti	5140200181	Fizika (Uzun tumani)	4	0	77,7	0

FIZIKA VA ASTRONOMIYA (ta'lim shakli: kunduzgi, ta'lim tili: o'zbek)

Oliy ta'lim muassasi nomi	Ta'lim shifri	Yo'nalish	Qabul kvotasi		O'tish ballari	
			Davlat granti	To'lov-shartnoma	Davlat granti	To'lov-shartnoma
Samarqand davlat universitetining O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti	5110200219	Fizika va astronomiya (Narpay tumani)	1	0	154,35	0
Toshkent davlat pedagogika universiteti	5110200	Fizika va astronomiya	20	80	143,85	88,2
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	5110200	Fizika va astronomiya	7	55	140,7	87,15
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	5110200239	Fizika va astronomiya (Bo'stonliq tumani)	1	0	135,45	0
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	5110200240	Fizika va astronomiya (Chinoz tumani)	1	0	132,3	0
Qo'qon davlat pedagogika instituti	5110200	Fizika va astronomiya	21	50	130,2	86,1
Samarqand davlat universitetining O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti	5110200	Fizika va astronomiya	5	25	130,2	85,05
Qo'qon davlat pedagogika instituti	5110200141	Fizika va astronomiya (Rishton tumani)	1	0	129,15	0
Navoiy davlat pedagogika instituti	5110200	Fizika va astronomiya	24	60	128,1	78,75
Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti	5110200	Fizika va astronomiya	10	65	127,05	70,35
Jizzax davlat pedagogika instituti	5110200	Fizika va astronomiya	21	70	126	84
Nukus davlat pedagogika instituti	5110200	Fizika va astronomiya	8	20	123,9	84
Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti	5110200	Fizika va astronomiya	15	56	123,9	59,85



Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	5110200241	Fizika va astronomiya (Ohangaron tumani)	2	0	123,9	0
Samarqand davlat universitetining O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti	5110200218	Fizika va astronomiya (Kattaqo'rg'on tumani)	1	0	122,85	0
Jizzax davlat pedagogika instituti	5110200203	Fizika va astronomiya (Yangiobod tumani)	1	0	113,4	0
Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti	5110200151	Fizika va astronomiya (Peshku tumani)	1	0	112,35	0
Qo'qon davlat pedagogika instituti	5110200142	Fizika va astronomiya (So'x tumani)	3	0	110,25	0
Jizzax davlat pedagogika instituti	5110200198	Fizika va astronomiya (Forish tumani)	5	0	101,85	0
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	5110200237	Fizika va astronomiya (Bekobod tumani)	4	0	95,55	0
Samarqand davlat universitetining O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti	5110200220	Fizika va astronomiya (Nurobod tumani)	2	0	94,5	0
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	5110200242	Fizika va astronomiya (Oqqo'rg'on tumani)	2	0	91,35	0
Samarqand davlat universitetining O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti	5110200225	Fizika va astronomiya (Qo'shrabot tumani)	1	0	91,35	0
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	5110200247	Fizika va astronomiya (Quyichirchiq tumani)	3	0	86,1	0
Jizzax davlat pedagogika instituti	5110200201	Fizika va astronomiya (Mirzacho'l tumani)	3	0	78,75	0
Navoiy davlat pedagogika instituti	5110200208	Fizika va astronomiya (Konimex tumani)	1	0	76,65	0
Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti	5110200154	Fizika va astronomiya (Romitan tumani)	2	0	68,25	0
Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti	5110200155	Fizika va astronomiya (Shofirkon tumani)	1	0	0	0

ASTRONOMIYA (ta'lim shakli: kunduzgi, ta'lim tili: o'zbek)

Oliy ta'lim muassasi nomi	Ta'lim shifri	Yo'nalish	Qabul kvotasi		O'tish ballari	
			Davlat granti	To'lov-shartnoma	Davlat granti	To'lov-shartnoma
O'zbekiston Milliy universiteti	5140400	Astronomiya	5	20	142,8	87,15

TIBBIYOT FIZIKASI (ta'lim shakli: kunduzgi, ta'lim tili: o'zbek)

Oliy ta'lim muassasi nomi	Ta'lim shifri	Yo'nalish	Qabul kvotasi		O'tish ballari	
			Davlat granti	To'lov-shartnoma	Davlat granti	To'lov-shartnoma
O'zbekiston Milliy universiteti	5141500	Tibbiyot fizikasi	15	35	132,3	81,9

(Davomi bor)

Alisher EGAMBERDIYEV tayyorladi.



Mutaxassis minbari

Olimlarimiz sinergetika metodlarini qo'llashni xohlamayotir

Chirchiq sohilida o'tkazilgan ilmiy konferensiyasidan so'ng tug'ilgan mulohazalar

Chirchiq davlat pedagogika instituti rektori professor, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi G'. Muhammedov tashabbusi bilan Chirchiq shahrida (Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida) "Zamonaviy ta'limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Ushbu konferensiyaning asosiy maqsadi – matematika, fizika va informatika fanlarini o'qitishning dolzarb muammolari, innovatsion texnologiyalarga asoslangan samarali va sifatli ta'limni amalga oshirish joriy qilish hamda jahonda matematika, fizika va informatika fanlari bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar, jumladan, matematik analiz, algebra, geometriya, differensial tenglamalar, matematik va kompyuterli modeldashirish, axborotlarni qayta ishlash, dasturiy ta'minot, mobil ilovalar, flesh texnologiyalar, fizika va astrofizika sohalaridagi ilmiy yangiliklarni muhokama qilish edi.

O'zbekiston Respublikasida matematika, fizika va raqamli texnologiyalar sohalarida bo'yicha ilmiy maktablar yaratgan yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlash, ilmiy izlanishlarni hamkorlikda bajarish bo'yicha kelishuvlarga erishish ushbu konferensiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Konferensiyada respublikamizning juda ko'p oliy o'quv yurtlaridan olimlar qatnashdi. Eng katta delegatsiya Samarqand davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Jizzax va Navoiy davlat pedagogika institutidan qatnashdilar. Matematika, fizika va zamonaviy raqamli texnologiyalar yo'nalishida amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar va ularning iqtisodiyot, suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, harbiy texnikalar, mashinasozlik, qurilish va boshqa sohalariga tatbiqlari natijalari muhokama etildi, amalda joriy qilingan va istiqbolli texnologik qurilmalar, asbob-uskunalar, jihozlar va loyihalar ustida mutaxassislar tomonidan o'zaro fikr almashildi. Konferensiyaning ushbu oliy o'quv yurtida o'tkazilishi bejiz emas. Chirchiq daryosi va shahri olimlarni o'tmishda ham qiziqtirgan. Atoqli shoir Hamid Olimjon "Chirchiq bo'yilarida" deb nomlangan she'rida go'zal satrlar yozgan. Bu yerda gidroenergetika manbalarini o'rganish va o'zlashtirishga qaratilgan tadqiqotlar boshlangan. Chirchiq daryosi Turkiston o'lkasida energiyani rivojlantirishning muhim manbasi bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelingan. O'z vaqtida suvni gidroliz qilish vositasida vodorod ajratish va uning asosida mineral o'g'itlar ishlab chiqarish korxonasi qurish masalasi ko'p bahs va munozaralarga sabab bo'lgan edi. Yangi usul konservativ dunyoqarashdagi rahbarlarga xush kelmagan. Mana endi bu sohada qancha korxonalar, qiyin eriydigan metallar korxonasi, transformator zavodi, oliy o'quv yurtlari va kollejlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbir qatnashchisi sifatida ba'zi mulohazalarni aytib o'tmoqchiman. Konferensiyada Hamid Olimjon orzu qilgan tabiatshunoslik fani haqida ham qizg'in munozara bo'ldi. Jumladan, fanlarni yangi falsafiy asosda o'qitish bo'yicha ma'ruzada "Aristotelning olamning efir nazariyasi" qatnashchilar tomonidan birmuncha olqishga sazovor bo'ldi. Shu vaqtgacha biz fanning tor yo'nalishlariga doir ilmiy ishlar olib borar edik, o'qitishda ham qat'iy davlat ta'lim standartlaridan foydalanardik, undan ozgina chetlanish man qilingan edi. Alternativ fikrlar, erkin fikrlash yo'q edi. Hozir har qanday yangi g'oya va tashabbus Prezidentimiz tomonidan ma'qullanmoqda.

Konferensiyada professor G'. Muhammedov, O. Ziyodullayevlarning ma'ruzasida Chirchiq davlat pedagogika institutida olib borilayotgan tashkiliy, tarbiyaviy, ilmiy-metodik ishlar chuqur tahlil qilindi.

Akademik R. Jo'rayevning "Yoshlarni distansion o'qitishning pedagogik shartlari" mavzusidagi chiqishi diqqatga sazovor bo'ldi.

Professor B. Rajabovning "Matematik fanlarni o'qitishda kompyuter modeldashirishga asoslangan mashg'ulotlarni tashkil etish" nomli ma'ruzasi maqtovgacha loyiq. Ma'ruzada juda ko'p grafiklar keltirildiki, ularning ko'pchiligi, masalan, yarimo'tkazgichlarda ro'y beradigan nochiqli jarayonlarga to'g'ri keladi. Bundan ko'rinadiki, turli xil fan vakillari uchrashuvlari fanlar integratsiyasini, tabiatning butunligini tushunishimiz kerakligini ko'rsatdi.

Shuningdek, konferensiyada sinergetikaga bag'ishlangan ma'ruza ham muhimdir. Institut fizika kafedrasining mudiri, dotsent Qo'sharboy Suyarov, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti o'qituvchisi O. Quvondiqovlar o'z ma'ruzasida sinergetikaning mazmun mohiyatini ochib berdi. Sinergetika o'z-o'zidan tashkil etish, nochiqliq, qaytmaslik, nomuvvaznatlilik, global evolyutsiya hodisalarini tadqiq qilish, xaos qanday qilib tartiblanishining paydo bo'lishiga zamonaviy nazar, olamni yangicha talqin etuvchi dunyoqarash ekanligi to'g'risida gapirildi.

Sinergetikaning asoschilaridan biri bo'lgan nemis fizigi German Xakken fikriga ko'ra, tizimlarning o'z-o'zini tashkil etish xususiyatlari tabiiy turlicha bo'lgan obyektlarda ham kuzatiladi. Jumladan, fizika, kimyo, biologiya, iqtisodiyot, lingvistika, boshqarishning ham umumiy g'oya, umumiy uslub va qonuniyatlarini ochib beradi. Uning doirasida turli maxsus fanlarning hamkorligi o'qitish jarayonidan ham joy olgan.

Afsuski, bu sohada davlatimizda sanoqli ishlar bajarilayotir. Olimlarimiz o'zining ish jarayonida sinergetika metodlarini qo'llashni xohlamayotir.

Hozirgi vaqtda Germaniyaning "Spinger" va Rossiyaning URSS nashriyotlarida sinergetikaning o'tmishi va kelajagi bo'yicha 100 ga yaqin kitob nashr qilindi. Shulardan biri sinergetikani tarixga qo'llashga bag'ishlangan. V. Galovkin "Синергетическая физика, или мир наоборо" (2016) kitobida sinergetika metodlarini texnikada qo'llashga doir misollar keltirilgan.

Sinergetika asoslari xorijiy davlatlar ta'lim dasturlariga kiritilgan, olimlar maktab, litsey, kollej va oliy ta'lim muassasalari uchun darsliklar va o'quv qo'llanmalari yozishmoqda. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar umumta'lim maktablarida sinergetika asoslari fan sifatida o'qitilmoqda. Yaqindagina olim Y. Solodovanning "Barcha uchun sinergetika" kitobi nashr qilindi. Bu kitob maktab o'quvchilaridan tortib, to yuqori lavozimlarda ishlayotganlar uchun ham foydalidir.


Hozirgi vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi takliflarni bildiraman:

- Ilmiy bilishga tor fan sifatida yondashuvni tugatish lozim. Bunda u bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan alohida tadqiqot sohalarini bo'lib qolmogi zarur emas. Chunki bunday yondashuvning afzalligi tor sohalarida o'ziga xos qonuniyatlarni ochishga olib keladi. Aks holda dunyoga yaxlit qarash, olimlar o'rtasida bir-birini tushunish yo'qoladi. Bir fanning usul va vositalarini boshqasiga qo'llab bo'lmay qoladi va boshqa qator salbiy omillar yuzaga keladi.

- Fan va amaliy faoliyat kompleks muammolarining fanlararo tadqiqi bo'yicha dasturlarni yo'lga qo'yish kerak. Ilmiy bilim integratsiyasi bo'yicha sa'y-harakatlarni, tadqiqotlarning umumlashtiruvchi nazariyalari hamda uslublarini yaratish va amalga oshirish zarur.

- Olimlar o'rtasida aloqaga, jumladan, fanning turli sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi tadqiqotchilar o'rtasida aloqa o'rnatishga ko'maklashish kerak. Buning uchun doimiy ilmiy sharhlar, materiallar va tadqiqotlarning yangi natijalarini olimlarning milliy uyushmalari doirasida ham, turli xalqaro uyushmalarda ham nashr etish, muntazam ravishda fanning turli sohalarining dolzarb masalalari yuzasidan anjumanlar, seminarlar, kongresslar, simpoziumlar o'tkazish lozim.

Obloqul QUVONDIQOV,
Samarqand davlat universiteti
professori



Qishlog'imiz hududidan o'tuvchi Qizildaryo bir vaqtlar to'lib oqardi. U ekin-tikin, dov-daraxtlarga hayot baxsh etardi. Yozning jazirama oylarida maza qilib cho'milardik. Saraton oftobida qizigan sohil qumlarida toblanardik.

Ammo u hozir qurib qum-toshloqqa aylanib boryapti. Daryoning joniga hamisha ozor yetkazadigan "zararkunandalar" qum-toshlarni xomashyo sifatida imoratlariga ishlatyapti. Bu holni ko'rib tabiat kushandalariga g'azabing, tabiatga rahming keladi.

Oldinlari hayot manbayi bo'lgan daryo endilikda ayrimlarning xomashyo manbayiga aylanib qoldi. Ekskavator va maxsus mashinalar yordamida daryodan qum, shag'al, tosh qazib olinishi

Tabiat xomashyo manbayi emas!

natijasida suv o'zani chuqurlashdi. Oqibatda daryo sathi pasayib, suvning ko'pi yer qa'riga singib ketishi tufayli suv kamayib bormoqda.

Eng dahshatlisi, ayrim "uddaburon"lar daryodan baliq ovlashda elektr tokidan foydalanmoqda. Nafs yo'lida bu ishni qilganlar millionlab, milliardlab baliq uvuldiriqilarini nobud qilayotganini nahotki bilmasa?! Afsuski, ularning bu noqonuniy xatti-harakatlari uchun hech kim hisob so'ramaydi. Nega tabiatni zaharlayotganlarga tegishli tartibda chora ko'rilmaydi? Mahalla oqsqoqli yoki boshqa muassasa rahbarlari bunga ahamiyat bermaydi?

Daryoning o'ng qirg'og'ida azim yong'oqlar bo'lardi. Anhorga soya tashlagan bu daraxtlar havoni chang-g'uborlardan tozalab atrofga ko'rk berib turardi. Ammo bugun ular kimlarningdir uyini isityapti. Kesilgan daraxtlar o'rmda esa maishiy savdo do'konlari, kompyuter-xona ochilgan.

Bugun ekologiyaga zarar yetkazish hisobiga kimningdir qorni to'ydi, kimdir daromad qildi. Albatta, bu nojoiz va vahshiyona qilmishlar uchun qiyomatda jazo muqarrar. Lekin ularga bugungi jamiyatimizda mavjud bo'lgan qonunlar doirasida chora ko'rinishi, qonunbuzarliklarning oldi olinishi lozim.

Yakkabog' tumani
Dilshodbek RAHMATULLAYEV

Millatimiz tarixida davlat va din arbobi, lirik va epik janrlarda barakali ijod qilgan Xo'janing bir hikoyatida odil podshoh haqida gap boradi.

Podshoh xalqining manfaatini o'ylab haj safariga borolmaydi. Shunda vaziri bilan maslahatlashib, 20 marotaba haj safariga borgan zohiddan bir haj savobini sotib olmoqchi bo'ladi. Podshoh bilan zohid o'rta-sida bir hajning bahosi ustida savdo bo'ladi.

Bir soatlik adolatning savobi

Podshoh aytgan o'n ming qizil tanga zohidni qoniqtirmaydi. Shunda podshoh "o'zing na tilasang, tilagil", deydi.

Zohid shunday javob beradi:
— Ey podshohim, bir haj na bo'lg'ay, yigirma hajimning savobini sizga berayin, siz bir soat adolat qilg'oningizning savobini menga bering.

Shunda podshoh:
— Ey zohid, bir soat adolat qilg'onning savobi na bo'lr? — deydi.

Zohid aytdi:
— Bir soat adolat qilg'onning savobi odamlarning va farishtalarning va hurlarning ibodatidan ortiqturur...

Agar hukmdor va sultonlarning bir soat-

lik adolat bilan qilgan ishlari qiymati shuncha bo'lsa, Yurtboshimiz adolat bilan chiqarayotgan qaror va farmonlarning qiymati qancha bo'larkin?

Hech bir soha yo'qki, Yurtboshimiz e'tiboridan chetda qolmagan. Ta'lim deysizmi, qishloq xo'jaligimi, tibbiyot... Masalan, bilib-bilmayjinoyatgaqo'lurganmahbuslarning bayram arafalari gunohlari afv etilib, ularni intizor bo'lib kutayotgan qorako'zlar-

ning bag'riga qaytishi, bir oilaga qancha xursandchilik bag'ishlaydi.

Bu yurtda har bir insonning o'z qadri bor. Haqiqatan ham, tog'-u toshda qo'y boqib yurgan cho'pon ham, chekka bir qishloqda yashayotgan inson ham bemalol o'z muam-molarini ayta oladi. Endi bir o'ylab ko'raylik-chi, yigirma hajning savobidan ko'ra bir soatlik adolatning savobi ortiq bo'lsa, bir kunniki, bir yilniki, besh yilniki qancha bo'larkan? Bu adolatning ajrini hisoblash mumkinmikan?

Nasiba FAXRIDDINOVA,
Jomboy tumanidagi
48-maktab o'qituvchisi

Korrupsiya – eng xavfli “virus”

Bolamni ishga qo'yishim kerak, kasalxonada menga yaxshiroq qarashsin, xizmat ko'rsatish joylarida boshqalarga qaraganda yaxshiroq xizmat qilsin, o'quv yurtida a'lo baho olayin... Farzandimni maktab yoki bog'chaga navbatsiz kiritishim kerak...

Buning uchun nima qilamiz, o'zimiz bilimgan holda korrupsiyaga yo'l qo'yamiz. Se-kin-asta bu illat ildiz ota boshlaydi. Hokimliklar-u davlat idoralarida yuz berayotgan po-raxo'rliklarning, shaxsiy manfaatparastlikning avj olishi jamiyatda "korrupsiya" deb atalmish xavfli virusning tarqalishiga zamin yaratyapti. Inson tamakidan 70 foiz zaharlansa, korrupsiya ayrim insonlar o'rtini 80–90 foiz zaharlashga ulgurdi. Bu illatni jamiyatdan chiqarib tashlash uchun, avvalo, ongli, halol, vatanparvar insonlarni tarbiyalashimiz kerak.

Singapur, Xitoy kabi davlatlarda bu ishga qo'l urgan shaxslarga nisbatan umrbod qamoq yoki o'lim jazosi berilar ekan. Bu kabi og'ir jazolar jamiyatda korrupsiyaning kamayishiga, insonlar orasida uning avj otmassligiga yordam beradi. Farzandlarimizga "Korrupsiya aslida ochko'zlik, ochko'zlik esa insonni tubanlikka boshlaydi" degan fikrlarni uqtirishimiz lozim. O'ylaymanki, o'zbek xalqi bunga erisha oladi.

Gulhayo TOJIYEVA,
Qorako'l tumanidagi
19-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Nishonda yana o'qituvchimi?

Zamonaviy maktablar nufuzini oshirish, maktab va OTM hamkorligini ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda ko'plab qaror va farmonlar ishlab chiqilmoqda. Ammo farzandlarini repetitora berib, o'qituvchilarni tanqid qilib, ta'lim tizimini "keraksiz tizim" deb obro'sizlantiruvchilar uchrab turibdi. Aslida maktabda ilm poydevorini mustahkamlay olmagan o'quvchini hech bir repetitor bilimli qila olmaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-noyabr-dagi "Oliy ta'lim tashkilotlariga kirish imtihonlarida abituriyentlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlariga qo'yilgan baholarni inobatga olish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ba'zi ota-onalarni sergak tortirdi. Bu o'quvchining oxirgi 6 yillik baholari OTM kirish imtihonlarida g'oyatda muhim ekanligiga tasdiqdir.

Yigirma besh yildan buyon boshlang'ich sinfga dars beraman. Yillar o'z so'zini ayyapti. Bolaga harf o'rgatish unchalik qiyin emas. Aksincha, bolani o'qitishdan ko'ra tarbiyalash mashaqqatli deb bilaman.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zam "Tarbiyaning boshi qayer-u, oxiri qayer?" degan savolga "Tarbiyaning boshi ota-ona, oxiri o'zimiz" deya javob bergan. Men ham o'qituvchi, ham ona sifatida bu jumlaning mazmunini teran angliandayman.

Tarbiya taqani to'g'rilaydi

Ammo ayrim ota-onalar ish, turmush tashvishlari bilan ovora bo'lib, farzandini tarbiyalashni biz o'qituvchilarning zim-mamizga tashlab qo'yishadi. Bolaga unday bo'l, bunday bo'l deb emas, amallar-u harakatlar bilan o'rnak bo'lish kerak.

Men qishloq maktabida ishlayman. Maktabimizga yilda bir shoir, bir yozuvchi kelsa keladi, bo'lmasa yo'q. O'quvchilarning yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlari tarbiyada muhim ahamiyatga ega. Bu ularning kitobga ishti-yoqini oshiradi. Faqat bilimdon bola ko'p narsaga erishadi, deb o'ylash xato. Ham bilimdon, ham odobli bola yangi O'zbekistonimizning yetuk fuqarosi bo'lishiga qat'iy ishonaman!

Zilola MIRZAYEVA,
Narpay tumanidagi
13-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Tarbiyada oilaviy qadriyatlarining ahamiyati yuqori

Nega hozirgi paytda maktab o'quvchisining (qo'yingiki, aksariyat yoshlarning ham) jamoat joyda o'zini tuta bilmasligi, o'qituvchi va teng-doshlariga bepisandligi, ilmga havasi yo'qligi, axloqsiz ekanligiga ko'p bora guvoh bo'lamiz? Eng bilimli, malakali ustozlar ham ularni yo'lga solishga qiynaladi. Nazarimda, bu borada oqsashlar boisi oilaviy qadriyatlariga amal qilmaslik, to'g'rirog'i, ularning mutlaqo yo'qligidir. Oilada niholdek o'sayotgan bolaga to'g'ri yo'nalish, go'zal tarbiya berish ota-onalarning zimmasidagi farzdir.

Qadriyat – oilada, inson hayotida aziz va mukarram bo'lgan odatlar majmuyi. Shuning uchun bolani go'dakligidan yaxshi odatlarga o'rgatmoq, to'g'ri-noto'g'rini uqitmoq, oq-qorani tanitmoq lozim. Nomaqbul amallardan tiyilish saodatning kaliti ekanligini tushuntirish kerak. Demak, oila universitetlari qadriyatlar maktabidir. Bu ta'limni olgan farzandlar odamiylik diplomiga ega bo'ladi.

Zamonaviy maktablar bolaga ko'p narsa: chuqur bilim, keng imkoniyatlar, mavjud qobiliyatlarga turtki, maqsadlarga ishonch berishi mumkin, lekin bular ham o'sha qadriyatlar ustiga quriladi. Vaholanki, shakllanmagan narsani rivojlantirib ham bo'lmaydi. Shunday ekan, har tomonlama salohiyatli, madaniyatli, ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash bevosita oiladagi qadriyatlar takomiliga bog'liqdir.

Malohat ABDUQODIROVA,
Parkent tumanidagi
22-maktab o'qituvchisi



Oxirgi paytlarda o'qituvchining baholariga e'tirozlar bo'lmoqda. Vaholanki, shu kunga qadar bolalarining baholari bilan qiziqmagan ayrim ota-onalar qaror qabul qilingach, o'qituvchilarni loyaqqlikda, po-raxo'rlikda ayblab, bolalari faqat a'lo baholarga loyiqligini pesh qilishmoqda. Hattoki

“Oq kema”ni o'qib...

Chingiz Aytmatov asarlaridagi voqealar odamni o'ziga rom etadi. Ularda sehr-joziba bor. O'qib ko'ngil mulki teranlashadi, g'am, hasratlarni unutimiz. Shu bilan birga dillar taftini olamiz. Inson bilan tabiat jipslashadi, go'yo. Xususan, "Oq kema" asarini ko'zimdagi yosh bilan o'qiyman. Undagi kichik qahramon – bolakayning taqdiri insonga katta tuyg'ularni o'rgatadi. Bolakay orzularining ushalmasligi, uning bevaqt o'limi ko'z ongimda ketma-ket namoyon bo'laveradi, bo'laveradi. Nahotki, nahotki uni tushunadigan biror kimsa bo'lmasa... Afsus... Bolakay o'zini ovutib, o'z ertaklaridagi borliq kabi ummon tubiga g'arq bo'ladi. Axir u Yer yuzida yashashdan charchadi va o'z o'miga ega bo'lish uchun baliqqa aylandi...

Aynagul BAYMURATOVA,
Qorao'zak tumanidagi 2-chet tilarga
ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining
ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi

Hozir qayerga qaramang blogerlarni uchratasiz. Ularni ishini qadrlayman. Albatta, saviyalilarini. Ammo qo'lida telefon tutganlar "Vatan uchun, xalq uchun" deb timoq ostidan kir qidirganlar kim aslida?

Shaytonvachchaning vasvasasi

Bolaligimda dadam "Shaytonvachchaning vasvasasi" deb nomlangan kitob olib bergandi. Shayton bolasi ermak uchun odamlarni bir-biriga gigijilaydi. Ayrim sodda insonlar esa bu vasvasaga uchib xato qiladi. Yaqinda "Face-book"da bir qiz telefonini cho'ntagidan olib qo'yishgani va bu haqida ichki ishlar bo'limiga xabar bergani haqida post qo'yibdi. Yozishicha, bo'limdagilar hudud ularga tegishli emasligini aytib, boshqa bo'limga yuborgan. Qiz: "Qonun kim uchun ishlaydi? Xalq uchunmi yoki...?" deb kinoya qilibdi.

Meni aslida, bu post emas, aksincha unga yozilgan izohlar ajablantirdi. Muhokamada tinchligimiz posbonlarini juda "shirin" so'zlar bilan siylab izoh qoldirishgan. Bir qiz o'z bee'tiborligi sabab telefonini yo'qotib, ichki ishlar bo'limiga borsa, unga boshqa manzil berishibdi. Xo'sh, bu shunchalik katta muammomi? Yo'q narsadan illat qidiradigan bo'lib qolmayapsizmi?

Guliston RAVSHANOVA,
Paxtachi tumanidagi
25-maktab direktorining xo'jalik
ishlari bo'yicha o'rinbosari

Yutuqlarimiz — jamoamizniki

Ta'lim maskanining har tomonlama yuksaluvda rahbar xodimlarning talabchan, zamonaviy bilimlarga ega, tajribali boshqaruvchi bo'lishi muhim.

G'ijduvon tumanidagi 60-maktabda sohada yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, kasbiga sadoqat bilan mehnat qilib kelayotgan pedagoglar jamoasi faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur maktabning tashkil etilganiga ko'p bo'lmasa-da, nufuzi kundan-kunga oshmoqda.

Ta'lim maskanining salohiyati va obro'si — tahsil olayotgan o'quvchilarning bilimi, o'qituvchilarning tajriba va saviyasi bilan o'lganadi. Jamoaning ahilligi esa, albatta, sardorga bog'liq. Aziza Jalolova — rahbar sifatida talabchan, qat'iyatli, o'qituvchilar mehnatini qadrlaydigan, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlaydigan inson. U kishi boshqarayotgan jamoa tumanda, viloyatda tanilishga ulgurgan. Maktab o'quvchilari turli sport musobaqalari, fan olimpiadalari hamda tanlovlarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda. Aziza Jalolova yuqori malakali, iqtidorli va jonkuyar pedagog kadrlar ishiga alohida e'tibor beradi. Joriy yilgi attestatsiya jarayonlariga maktabimizdan 35 nafar pedagog jalb etilib, ulardan 22 nafari yuqori natija ko'rsatdi. Maktabimizda bunday o'qituvchilar mehnatini qo'llab-quvvatlash va ularni rag'batlantirishga katta e'tibor beriladi. Yana bir faxrli o'rsatkich — o'tgan o'quv yilida bitiruvchilarimizning 60 foizi mahalliy va xorijiy davlatlardagi OTMlarning talabalari bo'lishdi.

Shohida FAYZIYEVA,
G'ijduvon tumanidagi 60-maktab direktorining
o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari

Faxrimizsiz bizlarning

Uchrashuv... Hamma bir-biri bilan miriqib suhbatlashmoqda. Yig'ilganlarning ki-yimlari ozodaligi va ko'rinishidan mas'ul kasb egalari ekani sezilib turibdi. Ular 1976-yili Toshkent davlat pedagogika bilim yurtini bitirgan, uzoq yillar turli hududlarda ta'lim sohasida xizmat qilgan, hozir keksalik gashtini surayotgan insonlar.

O'tmish saboqlari qirov qo'ngan sochlar, beg'ubor tuyg'ular o'rni sokinlik, o'ychan nigohlar egallagan chehralar. Yuzlarida chuqur, bir-biri bilan tutasha olmaydigan ajinarlar... Kulganida g'ijimlangan

Abdulla Avloniyning qabri qayerda?

"Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir". Ushbu keng ma'noli ibratli so'zlar kirib bormagan ta'lim dargohi, Avloniyni o'qimagan, bil-magan ziyoli, pedagog yurtimizda topilmasa kerak.

Ilmiy ishmini boshlashdan oldin, Abdulla Avloniyning qab-rini ziyorat etishni maqsad qilib (uzoq yillik ta'lim sohasida olib borayotgan faoliyatim sabab, poxtatga ko'p bora kelganimga qaramay, shu kungacha adibning qabrini ziyorat qilmaganimga o'zimdani uyaldim), "Botkin" qabristoniga bordim. Qabriston mu-tasaddilaridan bobomizning qabri qayerda ekanligini so'raganim-da, 2019-yili adibning avlodlari tashabbusi bilan Avloniy qabri Chig'atoy qabristoniga ko'chirilganligi haqida ma'lumot oldim.

Sizda savol tug'ilishi mumkin. Avloniyning qabri nima uchun nasroniy, boshqa din va o'zga millat odamlari dafn etilgan mozor-da? Sababi, o'sha davrda ilm-fan, madaniyat, adabiyot va davlat arboblari, kommunistik partiya a'zolari, millatidan qat'i nazar, ushbu mozorda dafn etilgan. Avloniy ham o'z zamonasining yirik davlat arboblari orasida bo'lgani uchun ham o'sha yerga ko'mil-gan.

Hozirgi kunda ma'rifatparvar, jurnalist, davlat va jamoat arbo-bi, birinchi pedagog, birinchi maktab asoschisi Abdulla Avloni-ning qabri uning avlodlari tashabbusi bilan Chig'atoy qabristoni-ga ko'chirilgan va shu yerdan mangu qo'nim topgan.

Davron AKBAROV,
Avloniy nomidagi xalq ta'limi muam-malarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
instituti magistranti

Hozirgi davrda zamonaviy dars usuli deb hisoblangan ta'lim tizimida o'qituvchining eng asosiy vaqti qog'ozbozlik yoki videoroliklar ustida ishlashga sarflanyapti. Bugungi kun talablaricha olib qaraganda buni ehtimol xato deb bo'lmas.

Qog'ozlar mahoratni qanchalik to'g'ri baholaydi?

Lekin bu masalalar ikkilamchi bo'lishi, asosiy maqsad – o'quvchiga sifatli bilim berish jarayoniga bular xalal bermasligi kerak. Qog'ozbozlik-siz, sifatli videoroliksiz ham o'qituvchi darsda o'zining haqiqiy mahoratini ko'rsata olishi shart.

Buyuk fizik olimi Faradey yoshligida o'qish uchun kitob topolmas edi, buyuk olim Ibn Sino va shoirimiz Alisher Navoiy zamonida videodarslar, kompyuter, hatto svet ham yo'q edi-ku, ammo bugun-chi? Hammasi bor, lekin ular kabi olim yo'q!

Bu donishmand olimlarning hayot va faoliyatining asosiy qismi tanqid ostida o'tgan. Shuning uchun qadim tarixda buyuk donishmandlarimiz aytgan ekanlar: "Tanqid – kelajak mevasi". Ammo bugun ta'lim sohasida tan-qidiy tahlillar juda kam. Qog'ozlarning zo'riligiga qarab pedagog mahoratiga baho berish mumkimi? O'qituvchining qo'lida sifatli dars namunalari mavjud bo'lsa-yu, lekin o'zi shu qog'ozdagi dars namunasi mazmun-mo-hiyatiga tushunolmasa-chi? Yoki sifatli qog'ozda dars namunasini tushun-sa-da, o'quvchi ongiga yetkazib berolmasa, singdirolmasa-chi?

O'qituvchi tanlagan kasbiga munosib, yetarli darajada tajriba va bil-im-mahoratga ega bo'lmasa, kelajak va jamiyat kushandasi yoki kelajak avlod zavoliga sababchi bo'ladi.

Akmal QURBONOV,
Boysun tumanidagi
18-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Davralar to'ldi, suhbat avj oldi. 40-41 yil davomida kimning boshidan nimalar o'tmadi deysiz. Baribir hamma o'z vazifa-sini uddalagan ko'rinish turibdi. Oh, maroqli suhbat, so'roq-javoblar, orziqib eslashlar, latiflik, qayta tanishuv! Bu davrada mening volidam ham bor.

Bir paytlar men va do'stlarimga ta'lim-tarbiya bergan g'ayratli ustozlari-mizning fidokorona xizmatlarini eslamaslik ayb. Ta'lim fidoyilari — bizning faxrimiz, g'ururimiz.

Lobar XOLIQOVA,
Sergeli tumanidagi
7-maktabning
o'zbek tili fani o'qituvchisi

Bugungi kunda yurtimiz va dunyo ahlini birdek qiynayotgan muammolardan biri — sog'lom turmush tarziga amal qilmaslik deb o'ylayman. Yevropa davlatlarida aholining katta qismini semizlik, saraton, yurak-qon tomirlari xastaliklari qiynayotgan bo'lsa, bizda ham oxirgi paytlarda yoshi kattalar o'rtasida mana shunday surunkali kasalliklar avj olmoqda. Bularning yuzaga kelishiga yagona sabab organizmga befarqlik, noto'g'ri yashash, to'g'ri ovqatlanmaslikdir.

Avvalo, to'g'ri yashashni o'rgataylik!

Buning oldini olish uchun maktabdanoq salomatlik bo'yicha saboqlar joriy etilishi lozim. Maktab o'quvchilari orasida osh-qozon bilan bog'liq kasalliklar, stomatit, karies (tish emalining yemirilishi), uzoqni ko'ra olmaslik va boshqa kasalliklar tez-tez uchraydi.

Bu borada o'qituvchiga qo'yiladigan yagona talab tarbiya darslari-da mana shu mavzuga alohida e'tibor qaratishdir. Qanday mahsulotlar sog'lik uchun foydali, nimalarni kamroq iste'mol qilish kerak yoki tamoman voz kechish lozim? Shu va boshqa ma'lumotlarni maktab partasidanoq anglagan o'quvchilar keyinchalik ham o'z sog'ligiga befarq bo'lmaydi. Atrof-dagilarni ham shunga o'rgatadi. Albatta, ota-onalar ham bolalarga bu borada doim maslahatchi bo'lishlari kerak. Majlislarda ota-onalarga bu masalaga jiddiy qarashini uqtiraman. Inson o'zini yaxshi ko'rib, sog'ligiga doim e'tibor bilan yashasa, uzoq umr ko'radi. Turli kasalliklar undan yiroq bo'ladi.

Saboat BAKRULLAYEVA,
G'ijduvon tumanidagi
18-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Xatlarni Niginabonu SHUKUROVA saraladi.

2021-YIL KASHFIYOTLARI

Yana bir yil poyoniga yetib bormoqda. Ushbu vaqt davomida juda ko'plab sohalar rivojlandi, yangi marralar zabt etildi. Ayniqsa, ilm-fanda qator yutuqlarga erishildi. Quyida 2021-yilda dunyo e'tiborini tortgan ilm-fan yangiliklarining qisqacha sarhisobi bilan tanishasiz.

Inson miyasi kompyuterga simsiz ulandi

Endi kompyuterni hech qanday jismoniy harakatsiz miya orqali boshqarish mumkin, bu haqida "Independent" nashri xabar berdi.

Joriy yil aprel oyida birinchi marta buyruqlar kompyuterga simsiz uzatildi. BrainGate texnologiyasining klinik tajribasida odamning miya motor korteksiga ulanadigan kichik transmitter ishtirok etdi. Sinovda falaj odamlar qatnashib, ularga kompyuterni boshqarish uchun harakatlarni shunchaki tasavvur qilishning o'zi yetarli bo'ldi.



AQSHning Braun universiteti tadqiqotchilarining aytishicha, tizim miya signallarini "bir neyronli rezolyutsiyada va to'liq keng polosali aniqlikda" uzatishga qodir. Universitet professori Li Xoxberg ushbu tizim harakati cheklangan insonlarga kommunikatsiya vositasi sifatida yordam berishini ta'kidlaydi.

"Iqlim halokati"ning oldi olinadimi?

Eng muhim voqealardan yana biri noyabr oyining boshida Shotlandiyaning Glazgo shahrida bo'lib o'tgan COP-26 (Conference of the Parties) sammitidir. Ushbu 26-umumjahon ekologik anjumanida — Glazgo iqlim paktiga erishildi. Bu xalqaro hujjatni 200 dan ortiq davlatlar imzoladi.

"BBC" saytida yozilishicha, shartnoma, garchi qonuniy kuchga ega bo'lmasa ham, kelgusi o'n yillikda iqlim o'zgarishi bo'yicha global kun tartibini belgilaydi. Unda mamlakatlar iqlim o'zgarishiga olib keladigan issiqxona gazi — karbonat ангидрид (CO₂) chiqindilari-



ni yanada qisqartirishga kelishib oldi. Olimlar fikricha, bu harorat ko'tarilishini 1,5 C atrofida ushlab turish va "iqlim halokati"ning oldini olish uchun zarur. Ushbu maqsadga erishish uchun dunyoning 500 ta eng yirik kompaniyalari tomonidan 130 trillion dollar sarmoya kiritish rejalashtirildi.

Bitim qashshoq mamlakatlarda ob-havoning yomonlashishi oqibatlarini yengish, toza energiyaga o'tishga yordam berish uchun mablag'ni sezilarli darajada oshirishni ko'zda tutadi. Dunyoning eng yirik CO₂ emissiyachilari AQSH va Xitoy kelgusi o'n yil ushbu sohada ko'proq hamkorlik qilishga va'da berdi. 2030-yilga qadar zarari bo'yicha ikkinchi o'rinda bo'lgan metan yonilg'isidan foydalanishni 30 foizga cheklash haqida 100 dan ortiq davlatlar kelishib oldi.

Shuningdek, 100 dan ortiq mamlakat rahbarlari 2030-yilgacha o'rmonlarni kesishni to'xtatish kerak degan to'xtamga keldi. Agar berilgan va'dalar bajarilsa, pakt iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Biroq ayrim mutaxassislar fikricha, bu kelishuv uzoqqa bormaydi, chunki aniq sanalar belgilanmagan.

Ta'kidlash joizki, Glazgo iqlim konferensiyasida O'zbekiston 2030-yilga qadar atmosferaga tashlama gazlarini 35 foizga kamaytirish rejasini tasdiqladi.

NASAning roveri Marsda birinchi marta kislorod hosil qildi

"Space.com"ning xabariga ko'ra, NASAning "Perseverance" roveri Qizil sayyorani kashf qilishga yordam berishi mumkin.

NASA (AQSH Milliy aeronavtika va koinotni tadqiq etish boshqarmasi) Perseverance marsoxodi sayyora atmosferasidan kislorod ajratib olishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu sinov 20-aprel — sayyorada o'tkazayotgan 60-kuni amalga oshdi.

Marsda atmosferadan kislorod hosil qilish uchun Rover o'zining MOXIE asbobidan foydalandi. Endi



bu texnologiya kelajakda kosmonavtlarni nafas olish uchun yaroqli bo'lgan havo bilan ta'minlashda yordam beradi. Bundan tashqari, mahalliy atmosferani kislorodga aylantirish kelgusida Marsda yonilg'i ishlab chiqarish imkonini ham berishi kerak. Bularning barchasi u yerga odamni tushirish jarayoniga yaqinlashtiradi, deya qayd etiladi xabarda.

Ma'lumot o'rinda, qizil sayyora atmosferasining 96 foizini karbonat ангидрид tashkil etadi.

Kislorod atigi 0,13 foiz, Yer atmosferasida esa 21 foiz.

Dunyoning beshinchi okeani xaritaga kiritildi

8-iyun Butunjahon okeanlar kunida National Geographic Jamiyati Antarktidani o'rab turgan tez oqimni Janubiy okean sifatida rasman tan oldi, deya yozadi "National Geographic.com".

Ilmiy hamjamiyatda Janubiy okean bo'yicha bahslar uzoq vaqtdan beri mavjud. Ba'zi olimlar buni Tinch okeani, Atlantika va Hind okeanlarining davomi deb hisoblashadi. Boshqalar esa uni okeanga aylantiradigan bir qator xususiyatlarni ta'kidlaydi.



Mutaxassislarning ta'rifiga ko'ra, Antarktidani o'rab turgan suvlar o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu ularni alohida okeanga ajratish imkonini beradi. Janubiy okean Antarktidani janubiy kenglikning 60-darajagacha cho'zilgan suvlarini o'z ichiga oladi, bundan tashqari, Dreyk Passaji va Janubiy Atlantika okeanining Shotlandiya dengizi bundan mustasno.

Dunyodagi birinchi 3D-formatdagi maktab ochildi



Malavida dunyodagi birinchi 3D-formatdagi maktab iyul oyida o'z eshiklarini ochdi. Kartonsifat materialdan qurilgan maktabni tiklash uchun atigi 18 soat kerak bo'lgan.

3D maktabni Afrikada arzon uy, maktab va ijtimoiy infratuzilmalarni qurishga yo'naltirilgan 14Trees Holcim va CDC Group qo'shma korxonasi qurdi. Tashkilotchilar tez va arzon texnologiya mamlakatdagi maktablarning jiddiy tanqisligini bartaraf etishga yordam berishiga umid qilmoqda. Bunday obyektning yaratish uchun material kompyuter nazorati ostida joylashtiriladi, so'ng birlashtirilib qotiriladi.

UNICEF birgina Malavida 36 000 ta o'quv xonalari yetishmasligini taxmin qilmoqda. Ularni an'anaviy usullar yordamida qurish uchun esa 70 yil kerak bo'lar ekan. 14 Trees ma'lumotlariga ko'ra, ushbu muammoni o'n yil ichida 3D formatdagi maktablar orqali bartaraf etish mumkin.

Shohsanam MAHMUDOVA
tayyorladi.

Eng yaxshi sovg'a

Atrofimizdagi ayrim insonlarga ziyoli deya ta'rif beramiz. Shunda beixtiyor ko'z oldimizda po'rim ust-boshli, salobatli kishi gavdalanadi. Afsuski, ba'zan tasavvurimiz aldanchi bo'lib chiqadi. Qo'ldagi qip-qizil diplom, qanshardagi jimjimador ko'zoynak doim ham ziyolilik belgisi bo'la olmasligiga amin bo'lamiz. Anglaymizki, yuz-ko'zi nur-ziyo, gap-so'zidan harorat yog'ilib turgan, kamtar-kamsuqum insonlarga bunday qutlug' ta'rifiga loyiq.

Navoiy orzusidagi mudarris

Aslida haqiqiy ziyoli inson ko'zguga o'xshaydi. Xonadon yo'lagidagi toshoynaga boqib, aft-angorimiz, ust-boshimizdagi qusurlarimizdan uyalganimizdek, ziyoli zotga duch kelgan chog' ham beixtiyor o'ng'aysizlanamiz, miyamizdagi quyuqa xayollar, ko'nglimizdagi kirchil kechinmalardan nogoh xijolat cheka boshlaymiz. Go'yo ziyolining ziyosi ich-ichimizni tuyqus yoritib yuborib, hamma sir-asrorlarni oshkor qilayotganday tuyuladi. Ana shunday shirin qiynoqlar iskanjasida poklana boshlaymiz. Ha, chinakam ziyoli qavmi hamisha ham boshga ko'tarishga arziydi...

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida "Mudarrislar to'g'risida" deb nomlangan alohida bob mavjud. Unda shunday deyiladi: "Mudarris – din ilmidan aniq masalalarni bilmog'i kerak, ko'pchilikka dunyoviy bilimlardan ta'lim bermog'i lozim; u yaramasliklardan hazar qilmog'i va nopok odamlardan uzoq yurmog'i; o'zini olim va bilardan deb ko'rsatmasligi; turli-tuman axloqqa xilof ishlarni "qil-sa ham bo'ladi" deb haromni halolga chiqarmasligi; joyiz bo'lmagan ishlar bilan mashg'ul bo'lib, odamlarni yomonlikka o'rgatmasligi; qilish kerak bo'lgan ishlarni qilmaslikni ham odamlar undan o'rganmasligi kerak"...

Hazrat Alisher Navoiyning mudarrislariga oid mana shunday haqqoniy satrlari ustoz To'liqin Xoljo'rayevga ham to'la-to'kis xos va munosibdir. Zero, bu inson butun umrini ta'lim berish, darsning mazmunini boyitib, sifatini yaxshilashga baxshida qilib, bu yo'lda astoydil ishlab kelayotgan fidoyi muallimdir. Ustozning tarbiyasini olgan yuzlab shogirdlari hozir turli tashkilotlarda nufuzli lavozimlarda ishlab, yurtimizning har tomonlama rivojlanishiga o'z hissasini qo'shyapti. Yana shuni ta'kidlash joizki, ulardan ko'pchiligi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga erishib, talabalariga saboq berib kelmoqda.

Ustoz To'liqin Xoljo'rayev 1971-yili G'alalorol tumanidagi Ugat qishlog'ida ziyoli oilada dunyoga kelgan. Tabiiyki, ziyolining oilasida ziyo manbalari farovon bo'ladi. Mana shu farovonlik bo'lajak mudarrisning qalbiga ma'rifat manzillaridan o'tish uchun havas tuyg'ularini solgan bo'lsa ajab emas. Har holda boshlang'ich sinflardayoq ko'plab folklor namunalari, ayniqsa, xalq ertaklari mutolaasiga qiziqish, shu'riy misralarni tezlik bilan yod olishlari tasodifiy bo'lmagan.

Nazarimda, ustoz — To'liqin aka qalbida bolalikdan o'qituvchilarga nisbatan mehr va havas baland bo'lgan. Ayni mana shu havas ustozni Guliston davlat universitetining ostonasiga boshlab kelgan. Topshiriqlarni o'z vaqtida va ijodkorona ado etgan o'spirin O'zbek tili va adabiyoti fakultetini (1994-yil) muvaffaqiyatli tugatgan.

Samimiylik va kamtarlik. Mana shu ikki sifat To'liqin domlaning betakror va noyob shaxsini ulug'lagan va ko'klarga ko'targan bo'lsa kerak. Bu fazilatlar ustoz bilan suhbatlashgan har bir kishi qalbiga iliqlik olib kiradi.

Ba'zan o'zingga yaqin tutgan insoningni ta'riflashga so'z topolmaysan. Aslida, bunday so'zlar lug'atlarda ham, ko'nglingda ham bor.



Biroq unga bo'lgan mehr-muhabbatini ifodalashga yetarli bo'lmayotgandek tuyulaveradi. To'liqinjon domla men uchun ana shunday aziz va qadrli yaqinlarimdan. JDPI akademik litseyida 2001-yil avgustidan 2007-yilgacha bu inson bilan bir jamoada faoliyat yuritish nasib qildi. O'shanda men To'liqin akani yaxshi inson va fidoyi o'qituvchi sifatida kashf qildim. Bu inson bilan bir bor muloqotda bo'lgan kishining yana so'zlashgisi, suhbat qurgisi kelaveradi. Yana bir jihat – u hamkasblari orasida do'stona munosabati, xushf'e'l, mehnatsevar, odamiy, dilkashligi, eng muhimi, halol va rostgo'yiligi bilan hurmat-e'tiborga sazovor bo'lgan.

Ustozning men eng havas qiladigan fazilati qo'li ochiqligi va mehmondo'stligidir. Bu barakali insonning xonadoni hamisha shogirdlar bilan gavjum. Ayniqsa, oilaparvarligi haqida ikki og'iz gapirmasam bo'lmas. Boisi, sevimli umr yo'ldoshi Gulzoda yanga bilan bir dargohda ishlab, to'rt qizni tarbiyalab, o'qimishli qilgan domla farzandlar tarbiyasida ham ko'plarga namuna. Ularning oilasi ilimga, undan keladigan ziyo nuriga tashna. Ustoz hayotda "Farzandga yo'naltirilgan investitsiya – kelajak yog'dusi" hikmatiga amal qilib, bor bisotini qorako'zlarining ilm olishlariga yo'naltiradi. To'ng'ich farzandi Mohinur Xoljigitova Toshkent shahridagi xalqaro Vestminster universiteti xalqaro iqtisodiy munosabatlar fakultetini muvaffaqiyatli bitirdi. Ra'no JDPI biologiya fakulteti, Munisxon shu ilm dargohi xorijiy tillar fakulteti 2-kurs talabasi. Kenja farzandi Bahora esa maktab o'quvchisi. Ular ingliz tilida o'z ona tillaridek gaplasha oladi, qolaversa, har biri IELTS sertifikatiga ega.

Inson umri go'yoki daraxtga o'xshaydi. Ulg'ayarkan, ildizi ham mustahkamlanib boradi. Ildizi mustahkam, parvarishlangan daraxtning mevasi esa shirin, umri uzoq bo'ladi deyishadi. Bugun mehribon oila, aqli farzandlar, shirin-shakar nabiralari qurshovida bo'lgan ustozning umri uzoq bo'lib, ilm yog'dusini taritishdan to'xtamasin deymiz.

Elmurod NASRULLAYEV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, JDPI dotsenti
Maqsuda JUMAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi
O'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Onamning ustozim – mening ustozim

Yaqinda "Vatan taraqqiyotiga mening hissam" nomli tanlovning tuman bosqichida qatnashib, 1-o'rin bilan viloyat bosqichiga chiqqanimni eshitgan ba'zi yaqinlarim hayron bo'lishdi. Chunki ular mening hikoyachilikka qiziqishimni bilishmas edi. Aslida ko'nglimdagi kechinmalarni, juda ta'sirlangan voqealarni qog'ozga tushirish menga bolalikdan odat bo'lsa-da, onam bu mashqlarimga jiddiy e'tibor bermasdi. Yangi narsa yozib, onamga o'qib bersam, ko'p hollarda bir xil javob qaytarardi:

– Juda ajoyib! Yozaver. Qancha ko'p yozsang, shuncha yaxshi. Lekin ularni chop etishga shoshilma. Matbuotda bir-ikkita mashqi chiqqan qizlarning ko'pchiligi havoyi bo'lib qolyapti. Hozir sening asosiy vazifang – o'qish, bilim olish. Jiddiy ijod qilishning ham o'z mavridi keladi.

Onamning gaplariga ishonardim, lekin o'sha mavridning qachon kelishini bilmasdim. Nazarimda, men unga qarab boryapman, shekilli.

Onam "Repetitor" gazetasiga ishga kirganda bir yarim yoshli qizcha bo'lgan ekanman, meni o'z ishxonasiga olib borgan yodimda. Muhammad Vali ustoz bilan o'sha yerda tanishganman. U kishi men bilan suhbatlashsa, zavqlanib ketar, onamga "Bu qiz juda iste'dodli, hali u sendan o'tib ketadi", der edi. Shunda onam: "Buning tanglayini Yassaviy bobosi ko'targan-da", deb javob qaytarardi.

Bir safar men Yassaviy bobomning kimligi bilan qiziqib, uning oldiga olib borishni so'raganman. Onam kulib-kulib javob bergan:


— San'atlar ichida musiqadan no'noqman. Alla aytishni bilmasdim. Go'dakligingda alla o'mniga Yassaviy hikmatlarini xirgoyi qilardim. Hatto sening tiling shu hikmatlar bilan chiqqan. Hadeb aytaverganimdan yodlab olgan ekanman. Eshitgan odam hayron qolardi...

Onamning gapi o'zimga ham qiziq tuyuladi. O'sha davrlarni, go'dakligimni elas-elas eslayman. Onamning beshik tebranishiga mos ohangdagi xirgoyisi quloqlarim ostida qayta sado beradi.

— Yana aytib bering o'sha hikmatlarni, — deb qistayman.

— Endi o'zing ayt, — deydi onam.

Men esa onamdan eshitgim keladi. Lekin ishlari juda ko'p. Gazeta tayyorlash, tirikchilik – uy yumushlari, mol-hol, yana ijodiy ishlari... Xullas, onamning menga vaqt ajrata olmasligini anglashim bilan u kishining ustozim – Muhammad Vali domlaga qo'ng'iroq qilaman. Ana endi bizing ajovib-g'aroyib suhbatimiz boshlanadi. Yoshim ulg'aygani sari domlamning suhbatlariga ko'proq ehtiyoj tug'ilyapti. Darvoqe, bizda otaning aka-ukasi, ya'ni amakini "buva" deyishadi.



Men ustozimni o'zimga yaqin olganim tufayli u kishiniyam "buva" deb chaqiraman. Hatto ba'zida onamdan olmagan ma'lumotlarni buvandan olaman. Buvam – ustozim har doim meni yozishga undaydi. Hali maktabga kirmasimdan men haqimda "Zebunnisoning darslari" degan maqola ham yozib, "Repetitor" gazetasida chiqqan ekan. Tanlovda qatnashib, matbuotda bosilgan mashqlarimni to'plash mobaynida o'sha maqolani ham qayta o'qib, juda hayratlandim. Bu maqola go'yo hozirgi kunni bashorat qilgandek tuyuldi.

O'sha tanlov kunlari biznikida motam edi. Opoddam – Abdullajon Husaynov to'qson olti yoshlarida olamdan o'tdilar. Bu ayriqlik ham-madan ham ko'ra menga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Chunki go'daklikdan opoddamning qo'lida o'sdim. U kishini juda-juda yaxshi ko'rardim. Opoddam haqida gapirsam, sira gapim tugamaydi. Ko'chadagi o'rindiqda o'tirib, butun qishloqqa, yosh bolachalarga qand ulashgan opoddam haqida hikoya yozdim: "Qishloqning "qand opodda"si".

Onam tanlov jarayonida men bilan hamsuhbat bo'la olmadi. Yana ustozimga murojaat qildim, maslahatlarini oldim. Keyin viloyat bosqichida ishtirok etdim. Hakamlar hay'ati menga ishonch bildirib, respublika bosqichiga yo'llama berdi.

Mening bu yutuqlarimda utozim – Muhammad Vali domlaning his-sasi katta. Shuning uchun u kishiga minnatdorchilik bildirish, 10-dekabr – tug'ilgan kuni bilan tabriklash uchun ushbu esseni yozdim.

Ilohim, shunday tug'ilgan kunlardan kamida 40 tasini ko'raylik!

Zebunniso ABDULLAJONOVA,
Yangiyo'rg'on tumanidagi
10-IDUMning 9-sinf o'quvchisi

“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 10-varianti

ONA TILI

1. *Shamol* so'zining sinonimlaridan qaysi biri “kemani kerakli tomonga suradigan yel” ma'nosida qo'llaniladi?

- A) shurta B) garmisel
C) sabo D) dabur

2. Matndagi gaplar orasida kompozitsion bog'liqlikni ta'minlovchi vositalar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) qayd etmoq lozimki, aniqki, ta'kidlamog' joizki
B) shunday qilib, bundan tashqari, xullas
C) va, hamda, ammo
D) demak, shunday ekan, biroq

3. Osmon ham bo'lib g'anim,
Qaytib tushsa – ne g'amim!
Bir tosh tushsa tushibdi.

Tog'day boshimga manim. (Usmon Azim)

Ushbu she'riy parchada olmoshning nechta ma'no turi ishtirok etgan?

- A) 1 ta B) 3 ta
C) 2 ta D) 4 ta

4. Agar u baxtli bo'lmasa// meni urmas edi// deb javob berdi//

Ushbu gapdagi // belgisi o'rniga mos tinish belgilarini qo'yning.

- A) ikki nuqta, vergul, tire, nuqta
B) vergul, vergul, tire, nuqta
C) ikki nuqta, tire, vergul, nuqta
D) vergul, vergul, tire, so'roq

5. Yo'lovchi qizga umri uzoq bo'lishini tiladi.

Ushbu gap ko'chirma gapli qo'shma gapga aylantirilsa, gapdagi vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelgan so'z qaysi qaysi gap bo'ladi?

- A) aniqlovchi B) ega
C) hol D) kesim

6. Qaysi qatorda bog'lovchisiz qo'shma gap berilgan?

A) Uzun bir yog'och topdi-da, asta olmani o'ziga tomon “hayday” boshladi, ammo olma quvlik qilib yigitni aldar, yog'och uchi tegishi bilanoq suvga bir sho'ng'ib, yana “qochib” qolardi.

B) Bilim har qanday muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishga zamin yaratadi, shuning ushun farzandlarimiz yuksak bilimga ega bo'lislari kerak.

C) Avval ular bizga yetib olishsin, keyin birga jo'naymiz.

D) Goh kechalari shamol bo'riday uvullab chiqardi, goh sharros yomg'ir quyib qolardi.

7. Qaysi nutq uslubida ta'sirchanlik va ifodaviylik kuchli bo'ladi?

- A) badiiy uslub B) ilmiy uslub
C) rasmiy uslub D) so'zlashuv uslubi

8. Quydagilardan nechitasi qo'shma olmosh sanaladi?

Bari, o'zing, nega, ana o'sha, nimadir, o'zingiz, allaqancha, hech bir, allaqanday, har qancha

- A) 5 tasi B) 3 tasi
C) 4 tasi D) 6 tasi

9. Qaysi qatorda epigraf haqida noto'g'ri hukm berilgan?

A) Inshoning mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli so'z, maqol, ibora yoki badiiy parcha epigraf deyiladi.

B) Epigraf, odatda, rejadan keyin, insho matnidin oldin, sahifaning chap chekkasida yoziladi.

C) Inshoda epigraf bo'lishini qat'iy talab deb tushunmaslik kerak, u tamoman ixtiyoriy.

D) Epigraf bo'lgan matndan so'ng (so'roq yoki undov gap bo'lmasa) nuqta qo'yiladi, muallif nomi qavs ichida beriladi.

10. Qaysi qatorda sodda yig'iq gap berilgan?

- A) Gapirishni bilish talantdir.
B) Olmalarni terdik.
C) Botir, Zarif, Halimjonlar kirib kelishdi.
D) Dono suhbatidan sira qochmagil, ta'sirin o'tkaz zar senga ham u til.

11. Ohimni eshitmadi.

Ushbu gapdagi to'ldiruvchi qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?

- A) modal so'z B) ot
C) undov so'z D) ravish

12. Bosh kelishik shaklidagi so'zning sintaktik vazifasi qaysi qatorda noto'g'ri berilgan?

- A) ega B) hol
C) ot kesim D) undalma

13. Qaysi qatorda ravishdan ko'chgan vazifadosh ko'makchilar berilgan?

- A) yon, orqa
B) bo'ylab, qarab
C) ro'para, qosh
D) so'ng, tomon

14. Tub so'z qaysi qatorda berilgan?

- A) bilim B) do'ppisini
C) serqatnov D) taqsimlamog

15. Yusuf ...os ...ojib o'z ...ulq-atvori va ze...ni bilan saroy a...li orasida ...am alo...ida mavqega ega inson ...isoblangan.

Ushbu gapdagi nuqtalar o'rniga necha o'rinda bo'g'iz undoshi qo'llaniladi?

- A) 6 o'rinda B) 4 o'rinda
C) 8 o'rinda D) 5 o'rinda

G'anisher HAQNAZAROV,
Xatirchi tumanidagi 1-maktab o'qituvchisi

MATEMATIKA

16. Agar sonlar qatori 3, 8, 15, 24, ... kabi davom etayotgan bo'lsa, keyingi hadini toping.

- A) 35 B) 25 C) 32 D) 38

17. -7, -5, -3, 2, 7, 8 sonlari orasidan ixtiyoriy ikkitasi tanlab olindi va bir-biriga ko'paytirildi. Eng kichik son nechaga teng bo'lishi mumkin?

- A) -63 B) -54 C) -18 D) -56

18. $7 \cdot 8 < 758$ tengsizlik o'rinli bo'lishi uchun yulduzcha o'rniga qo'yish mumkin bo'lgan sonlar o'rta arifmetigini toping.

- A) 3 B) 2,5 C) 3,3 D) 2


19. “G'ijduvon” dehqon bozorida go'sht narxi 50000 so'm bo'lib, u 10 foizga arzonlashdi. Go'sht necha so'mga arzonlashdi?

- A) 50000 B) 5000 C) 45000 D) 40500

20. 34,5856 sonini yuzdan birgacha aniqlikda yaxlitlang.

- A) 34,59 B) 34,57 C) 34,6 D) 34,58

21. Chizmadan foydalanib, A-B ning ishorasini aniqlang.



- A) musbat B) manfiy
C) nol D) aniqlab bo'lmaydi

22. $a < 0 < b < c$ bo'lsa $|a-b| - |a-c| + |b-c|$ ni soddalashtiring.

- A) $2b-2c$ B) $2a$ C) 0 D) $2c$

23. Ifodani soddalashtiring: $12 - (-28 + x)$

- A) $29+x$ B) $-16-x$ C) $40-x$ D) $40+x$

24. Agar $m+n+6=24$ bo'lsa, $10m+10n+12,8+7,2$ ni toping.

- A) 252 B) 300 C) 200 D) 152

25. n ning shunday qiymatlarini topingki, $\frac{n}{49}$ noto'g'ri kasr $\frac{52}{49}$ kasrdan kichik bo'lsin.

- A) $n=1, 2, 3, \dots, 51$ B) $n=50, 51, 52$
C) $n=50, 51$ D) $n=49, 50, 51$


26. 4 ta birlik, 3 ta o'nlik, 7 ta yuzdan birlar, 5 ta o'ndan birlar, 6 ta mingdan birlardan iborat sonni yozing.

- A) 34,756 B) 34,576 C) 34,756 D) 34,576

27. x ning qanday natural qiymatlarida quyidagi qo'sh tengsizlik o'rinli bo'ladi: $99,7 < x < 101$?

- A) $x=100, 101$ B) $x=99, 100, 101$
C) $x=100$ D) $x=99, 100,$

28. Quyida berilgan shaklning necha foizi bo'yalmagan?



- A) 50% B) 40% C) 30% D) 45%

29. 2 soat 10 daqiqa 30 sekund necha sekund?

- A) 7830 sekund B) 8730 sekund
C) 8500 sekund D) 7600 sekund

30. 0; 1; 2; 3; 5; 6 sonlaridan foydalanib tuzilgan eng katta uch xonali sondan eng kichik uch xonali sonni ayirsak necha hosil bo'ladi?

- A) 551 B) 451
C) 554 D) 567

Keyingi sonda 9-10-variantdagi ba'zi testlarning yechimlari beriladi.

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi 32- maktab o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI

31. Quyidagi shaxslardan qaysi biri Kushon davlatiga asos solgan?

- A) Kudzula Kadfiz B) Diodod
C) Kanishka D) Yevtidem

32. Yunon-rim tarixchilarining yozishlaricha, saklar necha guruhga bo'lingan?

- A) 3 guruhga B) 4 guruhga
C) 5 guruhga D) 2 guruhga

33. Quyidagi qaysi shaharda somoniylar va

“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 10-varianti

temuriylar davrida qog'oz ishlab chiqarilgan?

- A) Eloq B) Samarqand
C) Buxoro D) Choch

34. Quyidagi qaysi davlat qoraxoniylar tomonidan tugatilgan?

- A) somoniylar B) g'aznaviylar
C) qoraxitoylar D) sosoniylar

35. 1218-yili Urganch shahri tomon borayotgan mo'g'ullar karvoni kim tomonidan qirib tashlangan?

- A) Temur Malik
B) Jaloliddin Manguberdi
C) Qoracha Hojib
D) G'oyirxon Inolchiq

36. “Dor ul-hikma va maorif” — “Ma'mun aka-demiyasi” nechanchi yilda shakllangan?

- A) 833-yilda B) 1004-yilda
C) 1017-yilda D) 994-yilda

37. Muhammadniyoz Nishotiyning adabiy ijodidagi o'ziga xoslik nimada edi?

- A) Ahmad Yassaviy asos solgan hikmatnavislik an'anasini rivojlantirganligi
B) ruboiynavislikka katta hissa qo'shganligi
C) munozara janri taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi
D) dostonchilikda yangi an'anaga asos solganligi

38. Anushaxonni taxtdan ag'dara olgan Subhon-qulixon kimni Xivaga noib etib tayinlaydi?

- A) eshikog'aboshi Shohniyozni
B) qozi Umar qorini
C) Sayyid Ahmad xoja Fayziyni
D) ko'kaldosh Eshniyozni

39. Qaysi Qo'qon xoni kambag'al va qalandalarga yer hamda chorva mollari berib, ularni mehnatga jalb qiladi?

qiladi?

- A) Umarxon B) Erdonabiy
C) Olimxon D) Norbo'tabiy

40. Quyidagi qaysi davlat XIX asrning so'nggi choragida tugatilgan?

- A) Buxoro amirligi
B) Qo'qon xonligi
C) Turkiston muxtoriyati
D) Toshkent bekligi

41. 1910-yilda Toshkentning o'zida nechta jadid maktabi faoliyat ko'rsatgan?

- A) 24 ta B) 63 ta
C) 32 ta D) 12 ta

42. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida ko'tarilgan quyidagi qaysi qo'zg'olon oqibatida 673 ming kishi o'ldirilgan?

- A) Matyoqub pishiq qo'zg'oloni
B) Dukchi eshon qo'zg'oloni

C) Vabo isyoni

D) Jizzax qo'zg'oloni

43. 1907-1908-yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida qaysi gazeta chop etilgan?

- A) “Xurshid” B) “Shuhrat”
C) “Oyna” D) “Taraqqiy”

44. Birinchi jahon urushida davrida O'zbekistonga qancha bola evakuatsiya qilingan edi?

- A) 100000 B) 200000
C) 300000 D) 400000

45. Qur'oni karim kitobi ilk bor kim tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan?

- A) Abdulaziz Mansur
B) Muhammad Yusuf Muhammad Mansur
C) Alouddin Mansur
D) Mubashshir Ahmad

Jalol BOLTAYEV,
Urganch davlat universiteti magistranti

ONA TILI

S	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
J	A	A	C	B	D	C	A	B	B	C	C	B	D	B	A

MATEMATIKA

16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
A	D	D	B	A	B	C	C	C	D	B	C	B	A	A

O'ZBEKISTON TARIXI

31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
A	A	B	A	D	B	C	A	C	B	A	D	B	B	C

Tajriba

Tarix va adabiyotni qamragan mavzu

Ta'limda integratsiya o'quvchilarning bilimi mustahkamlanishiga ko'mak beradi. Jumladan, tarix darslarida qo'llaniladigan *o'qitish metodlari* — og'zaki bayon, hikoya, monolog, dialog, suhbat, sujetli hikoya, analitik sujet, tarixiy manbalar bilan ishlash, tarixiy adabiyotlar sanaladi. Shartli-grafik illstratsiyativ ko'rgazmalilik, surat tahlili, rasm ishlash, tarixiy xaritalar bilan ishlash, kontur xarita to'ldirish *ko'rgazmali metodlarga* kiradi.

Darslarda odatda tarixiy manbalardan, badiiy va boshqa adabiyotlardan foydalanaman. Jumladan, “*Konseptual jadval*” metodi — turli g'oyalarni, qarashlarni o'zaro taqqoslash va turli toifalar bo'yicha baho berishga qaratilgan. Metod yuqori sinf o'quvchilari o'rganayotgan mavzu — “Paxta ishi va qatag'on davri” mavzusi bo'yicha o'quvchilarni asar yoki tarixiy voqealarni tahlil va taqqoslashni o'rgatadi.

Mashg'ulotlarda sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. Ular tuzgan konseptual jadvalning bir qatorida tarixiy davr va ikkinchi qatorida shu davrdagi ijodkorlar olib chiqqan muammolar yozib boriladi. Ushbu metodika o'quvchilarning mavzu



yuvasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlarini rivojlantiriladi. Mashg'ulotlar chog'i ushbu metoddan foydalanish quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- o'qituvchi yechimi topilishi lozim bo'lgan mavzu(masala)ni aniqlaydi;

- o'quvchilar mavzu va metoddan foydalanish qoidasi bilan tanishtiriladi;

- o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi;

- guruhlar o'zlariga berilgan topshiriqni bajaradi;

- guruhlar yechimni sinf (guruh) jamoasi hukmiga havola etadi;

- guruhlarning yechimlari sinf (guruh) jamoasida muhokama qilinadi.

Dars jarayonida she'riyatga qiziqadigan o'quvchilar Erkin Vohidovning ijodiga ham to'xtalib o'tishadi. Ular “O'zbekim” qasidasida xalqning eng qadrlı yutug'i — Vatan

erkinligi va mustaqilligi tarannum etilgani, “o'rdali vahshiyona toptashdi va yer jarohatlari sezildi” misralari orqali ona diyorining tarixiy o'tmishiga yuzlanishadi. Ikkinchi guruh o'quvchilari esa shoir Robert Rojdestvenskiyning Erkin Vohidov ijodidan zavqlanib, yozgan misralarini yodga olishadi:


“*Fikrimcha, bular — juda yaxshi va aniq she'rlar. Shuningdek, ularda dono xotirjamlik va kenglik mavjud. Yana, og'riq bor. Haqiqiy inson og'rig'i...*”

Shoir o'z asriga mos, faqat millatning emas, butun olamning shavqini, dardini o'zida mujassam etadigan she'rlar yozishni orzu qildi. Bular 70–80-yillarda yaratilgan “Tirik sayyoralar”, “Sharqiy qirg'oq”, “Kuy avjida uzilmasin tor”, “Yaxshidir achchiq haqiqat” kabi to'plamlardan joy olgan she'rlarida, “Ruhlar isyoni”, “Istanbul fojiasi” dostonlarida yaqqol ko'rindi.

Xurshida VASIYEVA,
Zangiota tumanidagi
5-maktab o'qituvchisi

O'xshash taqdirlar

□ Ba'zan insonlar arzimagan narsalardan nolib qolishadi. Oramizda shunday kishilar borki, ular taqdirlaridan rozi bo'lib oldinga qarab intiladilar. O'zlarida yashashga kuch va iroda topib, hatto boshqalar ham hayotni sevishni o'rgatadilar.



— Men, Rayhon Nurmuhammedova 1971-yili Navoiy viloyatida tug'ilganman. 4 yoshimda poliomiyelet kasalligiga chalinib, 6 yoshimda Toshkent shahridagi 100-maxsus maktab-internatga o'qishga kelganman. Poytaxtga kelgan chog'larim ota-onamsiz, uyimdan uzoqdaligidan juda o'ksinardim. Lekin qarasm, atrofimda o'zimga o'xshagan bolalar o'ynab-kulib yurishibdi. Ularni ko'rib xotirjam bo'lganman. Ayniqsa mehribon, shu bilan birga qattiqqo'l va talabchan tarbiyachimiz Ro'za opani yaxshi eslayman. Maktabda ustozlarimiz bizga o'ziga ishonishni, mehnatdan qo'rqmaslik, o'z kiyim va o'quv qurollarimizga mas'uliyatli bo'lishni o'rgatishardi. Qiyin bo'lsa-da, barcha talablarni jon-jahdim bilan bajarishga harakat qilardik.

Qahramonimiz umr yo'llarida mashaaqatlarni qanday yengganini shunday tasvirlaydi:

— Maktabni bitirib, 1988-yili Nizomiy nomidagi TDPning Matematika fakultetiga o'qishga kirdim. 1995-yili o'qishni bitirib, aqlli va mas'uliyatli inson bilan oila qurdim, ikki o'g'illi bo'ldim. Tibbiyot kolle-

jida, "Mehribonlik" nogironlar jamiyatiga ishladim. 2016-yili 100-maxsus maktab-internatga matematika fanidan dars berishga taklif qilishdi. Qadrdon maktabimga ustoz bo'lib qaytayotganimdan baxtiyor edim. Shu yerda o'zimning bolalik davrlarimga qaytdim.

Tirishqoqlik, mas'uliyatlilik, mehnat qilishdan to'xtamaslik, o'ziga bo'lgan ishonch natijalarini sinfdoshlarimda ko'rdim. Masalan, Ayder Kurtulayev Milliy universitetning jurnalistika fakultetini tamomlagan. Hozir u maxsus muxbir, Putin, Medvedevlardan intervyu olgan. Moskvada yashaydi. Dilfuza Usmonova Toshkent moliya institutini bitirib, hozir Respublika Xalq bankida rais o'rinbosari bo'lib ishlamoqda. Muhabbat Biyunova nogironlar jamiyatida bosh hisobchi, Yunus Nasimjonov esa Toshkent shahar soliq boshqarmasida ishlamoqda. Sinfdoshlarim bilan faxrlanaman.

O'quvchilarimdan Ergash Davletboyev Toshkent shahar Olmazor tumani sanitariya-epidemiologiya bo'limida shifokor, Umidjon Ahmedov armrestling bo'yicha o'n karra O'zbekiston chempioni. Oychehra Po'latova Toshkentdagi 36-maxsus maktab-internatda o'qituvchi, Ibrohim Aliyev nogiron-tadbirkorlar "Nur" assotsiatsiyasida bosh hisobchi. O'qituvchi sifatida shogirdlarimning yutuqlaridan ko'nglim tog'dek ko'tariladi. Hozirgi kunda o'quvchilarim va o'g'illarimga muvaffaqiyatga erishgan bitiruvchilarimni misol qilib keltiraman.

Barcha kelajagimiz quruvchilariga shularni aytgim keldi: qiyinchiliklardan aslo ortga chekinmang, o'zingizga ishonang, harakatdan to'xtamang, mehnatdan qochmang, ustozlar berayotgan ilmlarni yoddingizda saqlang, tarbiyachilar o'rgatayotgan qoidalariga doimo amal qiling. Shunda

ko'zlagan maqsadingizga albatta erishasiz!
Yana bir qahramonimiz — Nasiba Muratshayxova. Uning hayot hikoyasini o'qib, xulosa chiqaramiz.

— 1996-yil 2-yanvarda ishchi oilasida tug'ilganman. Yoshligimdan odamlarning menga achinishini xohlasdim. 7 yoshimda onam meni maktabga olib borgandi. Uning ostonasiga kirib borar yekanman, hassada, aravada, qo'lsiz yoki oyoqsiz yurgan tengdoshlarimni ko'rib to'g'risi hayron qolganman. Bu aniq esimda. Lekin 1-sinfga qabul qilinganimda hecham yig'lamaganman, qo'rqmaganman ham. Chunki meni bu yerda hech kim ajratmasligini bilganman. Bundan juda ham xursand bo'lib, tengdoshlarim yig'laganida jahlim ham chiqqan hatto. Maktab davrimga kelsak juda ham sho'x, ammo faol bo'lganman. Katta saboqni ham shu maktabimdan oldim. Alo-hida ta'kidlashim kerakki, agar shu maktab va ustozlarim bo'lmaganda men yozish-u o'qishni bilmaydigan bir nogiron sifatida qolib ketgan bo'lardim. Chunki ota-onamga shifokorlar qizingizning miya faoliyati orqada qolgan, maktabda o'qiyolmaydi, yurishi ham qiyin, bora-bora og'irlashadi, deyishgan. Bir nechta kasb-hunar egallashga ulgurdim. Birinchi kasbim 14 yoshimda tikuvchilik bo'ldi, kompyuter operatori, buxgalter, shoira, jurnalist, kadrlar bo'yicha menejer va o'zim suygan kasb — pedagog. Eng qiziq kasblarimdan biri jurnalistikadir. Ushbu kasbda miriqib ishladim. Jurnalistikaga qadam qo'yishimga ustozim Sarvar Bahodirovning o'rni katta. Sarvar bilan tengdosh bo'lsak-da, men uni ustoz sifatida qabul qilaman. Inson taqdirini o'z qo'li bilan yaratadimi, degan savolga "ha" deb javob beraman. To'g'ri, biz doim taqdir deymiz, lekin taqdirimizda yozilgan deb bir joyda yotaversak, nima hal bo'ladi?

Istardimki, ota-onam men bilan faxrlansa, erishgan yutuqlarimdan boshi ko'kka yetsa. Juda ko'p marralarni egallash niyatidaman. Masalan, deputat yoki senator bo'lishni orzu qilaman. Mehnat, Sog'liqni



saqlash, Ichki ishlar, Xalq ta'limi vazirliklarida ishlash niyatim bor. Bu niyatim ortida nogironligi bor shaxslar huquqini himoya qilish asosiy maqsad bo'lib turibdi.

Tarbiyani bamosoli quyoshga qiyoslayman. Hozir oilali bo'lmagan-da, o'quvchilarimni o'z farandalarim o'miga qo'yaman. Ularga doimo birinchi navbatda OTA-ONAGA e'tibor qaratishlarini ta'kidlayman. Ichki kechinmalariga, qiziqishlariga e'tibor qarataman. O'zim uchun motivatsiyani birinchi navbatda muqaddas kitobimiz Qur'oni karim oyatlaridan, keyingi o'rinda esa avstraliyalik motivator Nik Vuchichdan olaman.

Suhbatdoshimning so'zlarini tinglar ekanman, undagi kuchli sabr-bardosh, iroda va qat'iyatni ko'rib ta'sirlandim. Qismatning uchchiq sinovlari kimlardir toblasa, yana kimlargadir saboq bo'ladi. Muhimi, bundan to'g'ri xulosa qilolsak bo'lgani. Nuridiydasingizni ko'zlaridan har tong quvonch izlashga uringan ota-onalarning matonatiga tahsin aytaman. Yana ta'kidlardimki, dilbandingizni bag'ringizda saqlamang. Katta hayotga qo'yib yuboring. Hayotning o'nqir-cho'nqir yo'llari, keskin burilishlar insonni toblaydi. Siz faqat unga ishonang. Mehriqiz bilan uni qurshab oling. Toki, hayot deb atalmish chamanzorda gullar unsin.

Yulduz TESHABOYEVA,
Olmazor tumanidagi 100-maxsus maktab-internatning ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti vakant o'rinlarga tanlov e'lon qiladi

№	Laboratoriya	Laboratoriya mudiri	Mutaxassis
1.	"Innovatsion tadqiqot laboratoriyasi"	1	3

Laboratoriya mudiri lavozimiga tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

1. Rektor nomiga ariza.
2. Xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa.
3. Oliy ma'lumoti to'g'risida diplom (ilova bilan), ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom nusxalari.
4. Ilmiy ishlar ro'yxati.
5. Oxirgi uch yillik faoliyati hisoboti (o'quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-uslubiy ishlar).

Laboratoriya mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda ishtirok etuvchilarga qo'yiladigan talablar:

Professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), fan doktori yoki fan doktori Doctor of Science (Ds) ilmiy darajasiga, shuningdek,

xorijiy mamlakatlarning tegishli mutaxassislik bo'yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga egaligi.

Maktabgacha ta'lim tizimida 5 yildan kam bo'lmagan ish stajiga egaligi.

Xorij tillaridan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi.

Maktabgacha ta'lim sohasida xalqaro tajribalarni bilishi.

Maktabgacha ta'lim tizimining xususiyatlarini, muammolarini bilishi.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga oid amalga oshirgan intellektual faoliyati (o'quv qo'llanmalar va darsliklar, ilmiy loyihalar, maqolalar, ishlanmalar va boshqalar).

Laboratoriya mutaxassisi lavozimiga tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

1. Rektor nomiga ariza.
2. Xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa.
3. Oliy ma'lumoti to'g'risida diplom (ilova bilan), ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom nusxalari (agar mavjud bolsa).

4. Ilmiy ishlar ro'yxati (agar mavjud bo'lsa).

Laboratoriya mutaxassisi lavozimini egallash uchun tanlovda ishtirok etuvchilarga qo'yiladigan talablar:

1. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha kamida magistr darajasidagi oliy ma'lumot.
2. Ta'lim tizimi yoki ilmiy sohada 3 yildan kam bo'lmagan ish stajiga egaligi.
3. Xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi.
4. Ta'lim tizimining xususiyatlarini, muammolarini bilishi.

Tanlov muddati gazetada e'lon qilingan kundan boshlab 15 kun.

Hujjatlarni quyidagi manzilga topshirishingizni so'raymiz:

100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf xos Hojib ko'chasi, 64-uy.

Tel.: (71) 254-05-15, **faks:** (71) 254-05-15,

e-mail: mtdmqtmoi@gmail.com, moi@mdu.uz

Samadov Alibek O'ktamovichning 14.00.13 — Nevrologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Ishemik insultning o'tkir davrida neyroprotektiv terapiyani optimallashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/13.05.2020.Tib.93.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-dekabr kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118. Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50; e-mail: buhme@mail.ru

Tosheva Iroda Isroilovna 14.00.01 — Akusherlik va ginekologiya va 14.00.36 — Allergologiya va immunologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Qog'onoq suvi ketgan homiladorlarda xorioamnionit rivojlanish xavfining klinik-immunologik omillari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/13.05.2020.Tib.93.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-dekabr kuni soat 10:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118. Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50; e-mail: buhme@mail.ru

Jabborov Ismoil Azimovichning 19.00.05 — Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosliklari bo'yicha "Oilada er-xotin munosabatlari muvofiqlashtirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari" mavzusidagi (psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.P.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2022-yil 5-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti, 411-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Sayinayev Farrux Karamatovichning 14.00.27 — Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha "Ventral churralarda endoxirurgik gernioplastikaning klinik afzalligi va texnik jihatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 20-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, (65) 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Saydullayev Zayniddin Yaxshiboyevichning 14.00.27 — Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha "O'tkir destruktiv zoletisit bilan bemorlarning xirurgik davosini takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2022-yil 20-yanvar kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Xudayberganov Otabek Erkinovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Voleybol vositalari yordamida pedagogik oliygozlarda jismoniy madaniyat fakulteti talabalarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-dekabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "B" binosi
2-qavat, kichik majlislar zali.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Turakulov Ibroxim Ravshanovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "No'anaviy mashqlar yordamida talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "B" binosi
2-qavat, kichik majlislar zali.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Dedaxanova Muazzam Altmishbayevna 10.00.11 — Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligi bo'yicha "Modern she'riyatda ma'no ko'chirishining lingvokognitiv aspekti (Rauf Parfi ijodi misolida)" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-dekabr kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-a" uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Nafasov Doniyor Shernafasovichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Turistik faoliyatda talabalar ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2022-yil 7-yanvar kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdipi-kengash@umail.uz

Mamatova Xilola Muxiddinovna 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Talabalarga kreativ yondashuv asosida ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish (mustaqil ta'lim misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2022-yil 7-yanvar kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdipi-kengash@umail.uz

Qurbonova Maftuna Faxriddinovna 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini mustaqil ishlar jarayonida shakllantirish metodikasi (PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari asosida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdipi-kengash@umail.uz

Saimnazarova Dilnoza Abdunematovna 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha "Talabalarga ingliz tilida matn o'qishni o'rgatish innovatsion texnologiyalari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-dekabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdipi-kengash@umail.uz

Xoshimov Sardorbek Ne'matjon o'g'lining 05.09.07 — Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Suv omborlarini loyqa cho'kindilardan tozalash usulini takomillashtirish (Chortoq suv ombori misolida)" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" milliy tadqiqot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.10.02 raqamli ilmiy kengashning 2022-yil 14-yanvar soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy.
Tel/faks: (71) 237-09-45, 237-38-79; e-mail: admin@itiame.uz

Sadikova Firuza Mahmudjanovna 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Talabalarining mustaqil ijodiy faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish (professional ta'lim soha yo'nalishlari misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2022-yil 8-yanvar kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Raximov Zokir Toshtemirovichning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2022-yil 8-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Xojametov Sabir Jabbarberganovichning 06.01.05 — Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Analitik seleksiya yordamida Qoraqalpog'iston Respublikasining ekstremal tuproq iqlim sharoitiga mos g'o'za navini yaratish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi (ixtiro patenti asosida) Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/27.02.2020.Qx42.02 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2022-yil 7-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.
Tel/faks: (78) 150-62-84; e-mail: paxtauz@mail.ru

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn(masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rektorati va kasaba uyushmasi qo'mitasi Milliy universitet huzuridagi Yarimo'tkagichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri, akademik **Tolib MO'MINOV**ning vafoti munosabati bilan marhumning yaqinlari va oila a'zolariga ta'ziya izhor etadi.



**TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI**
Tashkent state
transport university

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI JAMOASI

*Barcha yurtdoshlarimizni kirib
kelayotgan yangi – 2022-yil bilan qutlaydi.
Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lib,
ezgu orzularimiz ro'yobga chiqaversin.
Mamlakatimizda ilm-fan, ma'rifat va
ta'lim yuksalib boraversin.
Biz ana shu yo'lda siz ilm ahliga kamarbastamiz.*

Yangi yilingiz qutlug' bo'lsin aziz do'stlar!

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba
uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4980. Tiraji 6986.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotiyyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.

ISSN 2010-6416



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.